



Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nochy

O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri

2025-yil 27-noyabr
payshanba

№ 48 (4742)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

O'ZBEKISTON XABARLARI

MAHDUMI A'ZAM MAJMUASI TUBDAN O'ZGARADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasida joylashgan Mahdumi A'zam majmuasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli rekonstruksiya va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi. Majmua umumiy maydoni qariyb 5 gektarni tashkil etadi. Ziyoratchilar uchun sharoitlarni yaxshilash maqsadida maqbara yonida uch qavatli zamonaviy avtoturargoh, kirish darvozasi, kushxona va ma'muriy binolar, tahoratxona, ming kishilik masjid va qo'shimcha ayvonlar qurilmoqda.

URGUTDA EKO SHAHAR QURILADI

Samarqand viloyati Urgut tumanida 90 gektar qo'shimcha joy ajratilib, 100 ming aholiga mo'ljallangan zamonaviy eko shahar quriladi. Yangi shaharda yo'l, suv, kanalizatsiya, elektr, maktab, bog'cha, shifoxona va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, tadbirkorlik loyihalari uchun 50 million dollar ajratiladi. Yangi shaharning 3 gektar maydonida tumanning 35 ta tashkiloti uchun yagona ma'muriy markaz qurib beriladi. Ularning bo'shagan binolari esa biznes uchun xususiy sektorga taklif qilinadi.

HAVO SIFATI BO'YICHA RANGLI INDEKSATSIYA JORIY ETILADI

Mamlakatimizda havo sifati ko'rsatkichlari indeksatsiyasi (yashil, sariq, qizil, jigarrang) tasdiqlanadi. Uni 1-dekabrga qadar ishlab chiqish topshirilgan. Indeks asosida ifloslangan havoning odam organizmiga ta'sirini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar e'lon qilib boriladi. Bundan tashqari, havo sifati keskin buzilishi holatlarida aholini sanitariya xizmati tomonidan erta ogohlantirish tizimi joriy qilinadi.

«SHAJARA» AXBOROT TIZIMI YO'LGA QO'YILADI

Yurtimizda «Shajara» axborot tizimini yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda. U foydalanuvchilarga o'z shajarasini yaratish, genetik ma'lumotlar asosida uzoq qarindoshlarini izlash imkonini yaratadi. 2030-yilga qadar arxiv fondining raqamlashuv darajasi 60 foizga yetkaziladi.

PSIXOLOGLAR FARG'ONADA



– Ushbu tanlov biz, psixologlar uchun samimiy muloqot maydoniga aylanib, o'zaro tajriba almashish imkoniyatini ham yaratib berdi, – deydi tanlov g'olibi Toshkent shahar IIBB Yakkasaroy tumani IIOFMB psixologik ta'minlash guruhi katta psixologi, kapitan Sayyora Qodirova.

20



VOHANING TINCH GO'SHASI

19

YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

BU SO'Z HAYOTIY
HAQIQAT EKAN,– DEYDI KATTA SERJANT
TO'YCHIBOY SHAMALOV

Mamlakatimiz ichki ishlar organlaridagi ko'p yillik samarali xizmati, jamoat xavfsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo'shgan munosib hissasi yuksak e'tirof etilgan xodimlar safiga Toshkent viloyati IIBB Uchinchi mintaqaviy hududi saf bo'linmalari patrul-post xizmati otryadi uchinchi guruh PPX inspektori, katta serjant To'ychiboy Shamalov ham qo'shildi. U «Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.



– Katta serjant T. Shamalov jinoyatchilikka qarshi kurashish, profilaktik ishlar samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo'lidagi ibratli faoliyati bilan boshqalarga namuna bo'la oladigan jonkuyar xodim. Nafaqat mehnatkashligi, mas'uliyatliligi bilan ham alohida ajralib turadi. Uning mukofotlanganidan barchamiz birdek xursand bo'ldik, – deydi PPX otryadi komandiri, mayor Ilyos Shukurov.

Lavhamiz qahramoni oddiy oilada voyaga yetgan. 2007-yildan ichki ishlar organlari safiga. Ilk xizmat faoliyatini viloyat IIBB PPX batalyoni navbatchilik qismi katta inspektori lavozimida boshlab, keyinchalik PPX 3-otryad komandirining shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari

lavozimida davom ettirdi, shogirdlar yetishtirdi.

– Ustozlarimiz ko'p aytishardi: «Qayerda, qanday lavozimda bo'lsang ham o'z ishingni sev. Shunda uning mashaqqati sezilmaydi». Bu so'zlarning naqadar hayotiy haqiqat ekanligini o'z faoliyatim misolida ko'rib turibman. Bildirilgan ishonch uchun muhtaram Prezidentimizga va barcha hamkasblaringa minnatdorlik bildiraman, – deydi katta serjant T. Shamalov.

Albatta, astoydil mehnat qilgan inson hech qachon kam bo'lmaydi. Katta serjant To'ychiboy Shamalov anglab yetgan hayotiy haqiqatlarning tub zamirida harakat va uzoq yillik mehnatlar samarasi yotgan bo'lsa, ajab emas.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

YO'L INTIZOMNI YOQTIRADI

UYCHI O'ZGARDI,
NAVBAT BOSHQALARGA

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar insonning xavfsiz hayoti uchun xizmat qiladi. Namangan viloyati IIB JXX YHXB tashabbusi bilan Uychi tumanida o'tkazilgan o'quv-amaliy seminar aynan shu mas'uliyatni chuqurroq anglashga, tajribalarni baham ko'rishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.



Seminar shahar va tuman IIB boshliqlari, YHXB katta inspektorlari ishtirok etib, yo'l infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan taqdimotni tinglashdi. Bu jarayon mavjud muammolarni anglash, yechimlarni izlash va sohada to'plangan tajribani takomillashtirish uchun muhim muloqot maydoni bo'lib xizmat qildi.

Amaliy qismda ishtirokchilar D-109 «Namangan–Uychi–Uchqo'rg'on» avtomobil yo'lining 12–13-kilometr oralig'iga tashrif buyurishdi. Bu yerda so'nggi yillarda qilingan o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Piyodalar uchun qulay yo'laklar, qavariq o'tish joylari, zamonaviy svetoforlar va yo'l belgilari, radar-kamera qurilmalarining o'rnatilgani — bularning barchasi bir maqsad, ya'ni harakat xavfsizligini ta'minlash yo'lida amalga oshirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yo'lni ta'mirlash yoki yangi belgilar qo'yish xavfsizlikning faqat bir qismi, ya'ni ishning yarmi, xolos. Qolgan yarmi esa haydovchining hushyorligi, piyodaning ehtiyotkorligi va umumiy madaniyatda namoyon bo'ladi. Uychi tajribasida aynan mana shu ikki yo'l – texnik sharoitni yaxshilash va odamlar ongini o'zgartirish hamohanglikda olib borilayotgani seziladi.

Seminar davomida ishtirokchilar o'z taklif-mulohazalarini bildirdi, mavjud tizimni yanada samarali qilish bo'yicha fikr almashildi. Yakunda barcha tuman va shaharlar uchun maxsus qo'llanmalar tarqatildi.

Tajribani viloyatning boshqa hududlarida ham joriy etish bo'yicha kelishib olindi. Bu esa o'tkazilgan tadbirning amaliy natijasi sifatida baholandi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.


Namangan viloyati.



ХАЛҚАРО АЛОҚАЛАР

ҲАМКОРЛИКНИ ЧУҚУРПАШТИРИШ САРИ МУҲИМ ҚАДАМ

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги делегацияси Хитой Халқ Республикасига амалий ташриф буюрди. Делегация аъзолари жамоат хавфсизлигини таъминлаш, кибержиноятчиликка қарши курашиш, замонавий технологияларни амалиётга татбиқ этиш ҳамда кадрлар тайёрлаш соҳасида Хитойнинг илғор тажрибасини ўрганиш мақсадида қатор учрашув ва амалий тадбирларда иштирок этди. Ташриф давомида икки мамлакат ўртасида хавфсизлик соҳасидаги ўзаро ҳамкорликни янада мустаҳкамлашга хизмат қиладиган самарали мулоқот ва тажриба алмашинуви амалга оширилди.



Ички ишлар вазири Азиз Ташпулатов Хитой Халқ Республикаси Жамоат хавфсизлиги вазири Ван Сяохун билан учрашди. Ўзаро мулоқот давомида Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ва Хитой Халқ Республикаси Жамоат хавфсизлиги вазирлиги (ХХР ЖХВ) ўртасидаги амалий ҳамкорликни мустаҳкамлаш, трансмиллий ҳамда ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятчиликка қарши курашиш, жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш, шунингдек ўзаро тажриба алмашиш ҳамда кадрлар тайёрлаш соҳаларида ҳамкорликни ривожлантириш истиқболлари муҳокама қилинди.

Ташриф дастурига биноан мамлакатимиз делегацияси ХХР ЖХВнинг Биринчи тадқиқот институтида бўлиб, хавфсизлик соҳасида татбиқ этилаётган илмий-амалий ишланмалар, рақамли технологиялар ва ахборот базаларини бошқариш тизимлари билан батафсил танишдилар. Институт мутахассислари томонидан қўлла-нилаётган инновацион дастурий таъминот, интеллектуал видеотаҳлил, қидирув ва тезкор-қидирув фаолиятига оид ишланмалар каби

йўналишлардаги ютуқлар тақдироти ўтказилди.

ХХР ЖХВ Кибержиноятларга қарши курашиш бошқармасига ташриф ҳам юксак таассуротларга бой бўлди. Бошқарма раҳбарияти билан бўлиб ўтган учрашувда глобал даражада ўсиб бораётган киберхужумлар, электрон фирибгарлик, шахсий маълумотлар хавфсизлиги ва рақамли иқтисодиётни муҳофаза қилиш масалалари муҳокама қилинди. Хитой томони ўзларининг кибертаҳдидларни эрта аниқлаш платформалари, электрон тўловлар соҳасидаги фирибгарликка қарши технологиялари, интернет мониторинги ҳамда таҳдидлар хатарини баҳолаш тизими каби илғор ечимларини намойиш этди. Ўзбекистон делегацияси вакиллари мазкур амалиётларни мамлакатимиз киберхавфсизлик тизимини такомиллаштиришда қўллаш имкониятлари хусусида сўз юритди.

ИИБ делегацияси аъзолари Пекин шаҳар Жамоат хавфсизлиги бюросининг Ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва тергов ишлари марказида ҳам бўлиб, бу ерда жиноят ҳодисаларини рақамли моделлаштириш, криминалистик экспертизаларнинг янги турла-

ри, ҳужжатлар ва аудио-видео далилларни автоматлаштирилган тарзда таҳлил қилиш каби замонавий технологиялар билан яқиндан танишдилар. Бундан ташқари, ХХР Жамоат хавфсизлиги университетининг кадрлар тайёрлашнинг замонавий моделлари, ўқув курслари, амалий машғулотларни ташкил этиш тажрибаси ўрганилди.

Ташрифнинг кейинги босқичи Хитойнинг Гуандун провинциясида самарали ўтди. Провинция Жамоат хавфсизлиги департаментида делегацияга ҳудудий хавфсизликни таъминлаш, жамоат тартибига бўлган таҳдидларни мониторинг қилиш, йўл ҳаракати хавфсизлигини яхшилаш ва тезкор марказларни бошқариш тизимлари ҳақида ахборот берилди.

Шэньчжэнь шаҳрида эса замонавий техник йўналишларнинг қатор муҳим объектлари кўздан кечирилди, Учувчисиз учиш аппаратлари бўлинмаси — дронлардан қутқарув амалиётлари, жиноятларни аниқлаш ва профилактика ишларида фойдаланиш тартиби, Полиция авиация бошқармаси — ҳаво патрулининг имкониятлари, бошқарув маркази, тезкор мониторинг тизимлари ҳамда Киберфирибгарликка қарши марказ

— рақамли таҳдидлардан муҳофаза қилишнинг юқори технологияли ечимлари ҳам делегациямиз аъзоларида катта қизиқиш уйғотди. Шунингдек, ИИБ делегацияси 15-Бутун Хитой спорт ўйинларининг ёпилиш маросимида иштирок этиб, оммавий тадбирларда хавфсизликни таъминлашнинг йирик масштабли модели билан танишдилар.

Ташрифнинг якуний қисмида вазирлик делегацияси «Huawei» компаниясининг «Songshan Lake» илмий-технологик кампусида бўлди. Компания мутахассислари томонидан интеллектуал назорат ва мониторинг платформалари, ахборот хавфсизлиги ечимлари, полиция тизими учун рақамли бошқарув платформалари, жамоат хавфсизлиги соҳасидаги сунъий интеллект технологияларининг имкониятлари намойиш этилди.

Ўзбекистон Республикаси ИИБ делегациясининг мазкур ташрифи икки мамлакат ўртасида хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорликни янги босқичга олиб чиқиб, амалий тажриба ва илғор технологияларни мамлакатимизда жорий этишда муҳим амалий аҳамиятга эга бўлади.

Ўзбекистон Республикаси давлатлар ва халқаро ташкилотлар билан икки ва кўп томонлама муносабатларни ҳар тарафлама ривожлантиришга қаратилган тинчликсевар ташқи сиёсатни амалга оширади.

Ўзбекистон Республикаси давлатнинг, халқнинг олий манфаатларидан, унинг фаровонлиги ва хавфсизлигидан келиб чиққан ҳолда иттифоқлар тузиши, ҳамдўстликларга ва бошқа давлатлараро тузилмаларга кириши ҳамда улардан чиқиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 18-модда.



Наставник и ученик

ТА, КТО ПОМОГАЕТ НЕ ОШИБИТЬСЯ

Подполковник Гулжахан Заримова, старший инспектор группы организации профилактики среди несовершеннолетних и молодежи УКД ОВД Юнусабадского района, в органах внутренних дел около 15 лет. По ее словам, главное кредо – работать на благо общества, помогать тем, кому особенно нужна защита: детям и подросткам.

Ежедневные задачи подполковника Заримовой требуют вдумчивости, ответственности и большую часть времени – живого, доверительного общения. Она мониторит оперативную обстановку, изучает каждое поступившее сообщение о правонарушениях среди подростков, анализирует сводки школ и махаллей, поддерживает постоянную связь с социальными педагогами и психологами.

Нет шаблонных ситуаций – каждый подросток, состоящий на учете, требует индивидуального подхода. Проверка условий проживания, посещаемости школы, беседы с родителями, контроль поведения подростков, относящихся к группе риска, – все это формирует фундамент той самой профилактики, которая помогает избежать ошибок и изменить судьбы.

– Для меня самое важное – доверие. Без него невозможно построить диалог ни с подростком, ни с родителями.



Справедливость и ответственность – два других принципа, которые не позволяют ошибиться в принятии решений, – отмечает наша героиня.

Когда появляются молодые сотрудники, для нее естественным становится желание под-

держивать, подсказать, научить. Функции наставника она начала выполнять после накопления профессионального опыта и уже многие годы передает знания тем, кто только делает первые шаги в системе органов внутренних дел.

На ее счету – более десяти подопечных. Это не просто цифра: за каждым – адаптация к службе, первые трудности, первые победы.

На фото рядом с ней – выпускница Академии МВД лейтенант Камила Сагатова, молодая инспектор группы аналитики и координации ОПП.

– Мы много работали вместе: проводили разбор служебных ситуаций, обсуждали рабочие алгоритмы, отрабатывали общение с гражданами. Уверенность приходит постепенно – с правильным сопровождением, – рассказывает подполковник Заримова.

Сегодня лейтенант Сагатова уверенно выполняет служебные задачи, демонстрируя те самые качества, которые ее наставник считает фундаментальными – дисциплину, способность принимать взвешенные решения.

С теплом Гулжахан Женгисовна вспоминает и своего наставника – подполковника Кесенбая Нурабуллаева, под

руководством которого начинала службу.

Подполковника Заримову мотивирует то, что видит не все – маленькие шаги вперед, которые делают подростки и молодые сотрудники рядом с ней. Каждая позитивная перемена, каждое удачное решение, каждый подросток, избежавший опасного пути – все это, по ее словам, формирует чувство значимости службы.

Она уверена: эффективная профилактика – это не разовая мера, а ежедневная, кропотливая работа, требующая знаний, терпения.

Свое время она распределяет строго и рационально: при плотной служебной нагрузке остается место семье, личным интересам и заботе о собственном эмоциональном состоянии.

Подполковник Г. Заримова – пример того, что система органов внутренних дел держится на людях, которые приходят сюда не случайно. Они выбирают служить, помогать, направлять, и каждый их рабочий день становится вкладом в безопасность и будущее молодого поколения.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.

Общенациональный проект «Яшил макон»

К ЗЕЛЕНОМУ БУДУЩЕМУ

В рамках проекта в городе Зарафшан был создан «Парк внутренних дел». С целью дальнейшего расширения территории и сохранения чистоты воздуха проводятся масштабные благоустроительные работы. В этот раз в ходе мероприятия было высажено более 400 декоративных и плодовых саженцев.



В экологической акции активное участие приняли личный состав городского ОВД, сотрудники службы охраны, военнослужащие воинской части № 7551, а также ветераны. Благодаря совместным усилиям парк вскоре станет еще комфортнее, превратившись в любимое место граждан для прогулок и отдыха на природе.

Субботнее мероприятие, направленное на улучшение экологической среды, расширение зеленых зон и укрепление здоровья населения, было продолжено в махалле Малик Карманинского района.

Здесь занялись посадкой саженцев на пу-

стующих территориях. Были высажены 500 саженцев, предназначенных для выращивания на засушливых и малоплодородных землях. Беречь природу – гражданский долг каждого.

Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.

Навоийская область.



BOSH QOMUSIMIZDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

(8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni)

Umumxalq referendumi yo'li bilan qabul qilingan Bosh qomusimizga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishidan ko'zlangan asosiy maqsad inson huquqlarini yanada kengaytirish, uni ta'minlash mexanizmini va bunda davlat mas'uliyatini yanada kuchaytirish edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarining dahl-sizligi, uning bevosita amal qilishi, inson huquq va erkinliklari qonunlar-ni hamda davlat organlari, fuqaro-larning o'zini o'zi boshqarish organ-lari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi, davlat tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'-sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi, inson bilan davlat organlarining o'zaro muno-sabatlarida yuzaga keladigan qo-nunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilandi.

Shuningdek, Konstitut-siyada inson huquqlari va erkinliklari bo'yicha normalar miqdori kengaytirilib, yangi huquqlar va qoidalar kiritildi. Avvalgi Konstitutsiyada inson huquqlari uchun 23 mod-da ajratilgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada 34 modda mavjud. Inson huquqlariga taalluqli mod-dalardagi normalar 37 dan 98 taga ko'paydi. Bu Aso-siy qonunga nafaqat yangi moddalar qo'shilganini, balki yangi normalar ham kiritilga-nini ko'rsatadi.

Xususan, shaxsni sudning qaro-risiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi, ushlab chog'ida tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turish sabablari tushuntirilishi shartligi; aybsizlik prezumpsiyasi aniq belgilanganligi, aybsizlikka oid barcha shubhalar, ularni bartaraf etish imkoniyati tugagan bo'lsa ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mah-kumning foydasiga hal qilinishi; har kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi; agar shaxsning o'z aybini

tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi va jazolanishi mumkin emasligi; ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada



bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hur-mat qilinishi huquqiga egaligi; shaxs-ning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi kabi bir qator qoidalarining o'rnatilishi insonparvar davlat yo'lidani borayotganimizni ko'rsatadi.



Konstitutsiyamizda fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlari ham kengaytirildi, unga mutlaqo yangi «O'zbekis-ton Respublikasining fu-qarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar» degan qoida kiritildi (37-modda). Bu fuqarolarning davlat bosh-qaruv ishlarida ishtirokiga teng imkoniyat yaratadi.

Konstitutsiyaga homi-ladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qa-bul qilishni rad etish, ish-dan bo'shatish va ularning

ish haqini kamaytirishni taqiqlovchi qoidaning kiritilishi esa ayollarning jamiyatdagi o'rni munosib bo'lishiga qaratilgan e'tibordir.

Har kimning uy-joyi bo'lish hu-quqi, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi, o'qituvchilar maqomining alohida belgilanishi, ularning sha'ni, qadr-qimmatining himoya qilinishi, ularga alohida g'amxo'rlik qilish kerakligi,

davlat fuqarolarning bandligini ta'-minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish choralari-ni ko'rishining Konstitutsiyada qayd qilinishi va Konstitutsiyaviy darajada belgilanishi O'zbekistonning xalq-parvar davlat ekanligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Konstitutsiyada inson va fuqarolar huquqlarining kafo-latlari tizimi, fuqaro-larga o'z huquqlarini himoya qilish imko-niyatlari kengaytirildi. Jumladan, har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanma-gan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi; har kim qonunchilik va xalqaro shartnomalarga mu-vofiq, agar davlatning

huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinlik-larini himoya qiluvchi xalqaro organ-larga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilandi.

Konstitutsiyaning 56-moddasida esa inson huquqlarini himoyalash-da inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar vazifasi belgilab qo'yildi. Unga asosan, milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jami-yatini rivojlantirishga, inson huquq-lari madaniyatini yuksaltirishga ko'-maklashadi. Davlat inson huquqlari




bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoit ya-ratadi. Shuningdek, Konstitutsiyada mehnatga layoqatsizlar, yolg'iz kek-salar, nogironligi bo'lgan shaxslar, aholining ehtiyojmand qismi, xotin-qizlar huquqi alohida himoyalani-shi belgilandi.

Inson huquqlarini himoyalash faqat shaxsning huquqiy holatiga taalluqli boblar va moddalardagina emas, Konstitutsiyaning boshqa moddalarida ham uchraydi. Xusu-san, 133-moddada fuqarolar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalardan foydalanib bo'-lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud to-monidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiq-ligi to'g'risidagi shikoyat bilan Kons-titutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli ekanligi ifodalangan. Konsti-tutsiyaga kiritilgan bu yangi qoida fuqarolar huquqining kafolatlarini kuchaytirish bilan birga, Konstitut-siyaviy sud faoliyatini kuchaytirishga ham qaratilgan.

Konstitutsiyaga maxsus «Advokatura» (XXIV) bobining kiritilishi ham inson huquqla-rini ta'minlash choralarinig kuchaytirilganligini ko'r-satadi. Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsati-shi hamda uning mustaqilligi 141–142-moddalarda belgi-lab qo'yildi.

Xulosa o'rni-da shuni aytish joizki, yangi Bosh qomusimizning mazmuni uning insonparvarlik g'oyalari asosi-da xalqchil va mukammal ekanligini, davlatning boshqaruv tizimini emas, balki, avvalo, inson va uning manfa-atlarini oliy qadriyat sifatida belgila-yotganini namoyon etadi.

Hamidullo MO'MINOV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi axborot-resurs
multimedia bo'limi boshlig'i.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
ushbu QR-kod
orqali o'qishingiz
mumkin.



MAHALLA YETTILIGI BILAN BIRGA

Qorako'lda oila-turmush doirasidagi jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Hamida Hamidovaning hamkor tashkilotlar bilan o'tkazayotgan tadbirlari ijobiy natijalar beryapti. U mahallalar yettiligi bilan birgalikda notinch oilalar ro'yxatiga kiritilgan xonadonlarda bo'lib, ayollarning turmush tarzi va oilaviy sharoitlarini doimiy ravishda o'rganmoqda.

Shuningdek, ayollarni tazyiq va zo'rvonlikning turli ko'rinishlaridan himoya qilish maqsadida profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda 513 nafar ayolga himoya orderi rasmiylashtirib berildi. «Xonadonbay» asosida oilaviy nizosi mavjud bo'lgan yoki fuqarolik va ma'muriy sudlarda sudlashayotgan oilalarga borib, har bir oila a'zosi bilan jinoyat kelib chiqishining oldini olish maqsadida yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlar olib borilmoqda.

– Turmush o'rtog'im hech qayerda ishlamasdi. Uyda har kuni janjal bo'lardi. Agar spirtli ichimlik iste'mol qilsa bormi, uni tinchlantirib bo'lmasdi, – deydi «Xo'jalar» mahallasida yashovchi Karima (ismi o'zgartirildi). – Mazkur muammo bo'yicha podpolkovnik Hamida Hamidovaga murojaat qildim. U mahalla raisi bilan birgalikda turmush o'rtog'imni doimiy ishga joylashtirib



qo'ydi. Biz bunday xayrli va savob ishlarni amalga oshirayotgan tuman Ichki ishlar bo'limi xodimlaridan behad mamnunmiz.

Bundan tashqari, xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor va

psixolog xodim tomonidan tuman hududida ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga ko'maklashish, ularning bandligini ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklardan qaytarish borasida keng ko'lamli

targ'ibot ishlari olib borilmoqda. O'tgan oylar davomida og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, profilaktik hisobda turuvchi 10 nafar xotin-qizning tumanidagi turli korxona va muassasalarga ishga joy-

lashishiga yordamlashildi. Jumladan, «Chekirchi» mahallasida yashovchi R. Shodiyeva «Realteks» ip-yigiruv korxonasiga, Sh. Xojiyeva «Artel» kompaniyasiga ishga joylashtirildi. Fuqarolik sudlarida nizolashayotgan va ajrim yoqasiga kelib qolgan 66 ta oila yarashtirildi.

O'tgan oylar davomida ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilganligi uchun profilaktik hisobga olingan 192 nafar xotin-qizning 167 nafari tuzalish yo'lga kirganligi bois profilaktik hisobdan chiqarildi. Mazkur toifadagi xotin-qizlar bilan profilaktik-tushuntirish ishlari olib borish jarayonida aniqlangan muammolar hamkor tashkilotlar bilan ijobiy hal etildi. Masalan, 10 nafar xotin-qiz ishga joylashtirildi, 15 nafariga moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Davolanishga muhtojligi aniqlangan 18 nafari sog'lig'ini tiklash uchun tibbiyot bo'limlariga yuborildi. Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan 2 nafariga beg'araz ko'maklashildi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

TARG'IBOT – ENG MUHIM VOSITA



Ichki ishlar organlarida qonun ustuvorligini ta'minlash, xodimlarning huquqiy bilimini mustahkamlash va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, viloyat

IIB Tashkiliy boshqarmasi Yuridik ta'minlash bo'limi tomonidan joriy yilning dastlabki o'n oyi davomida tashkil etilgan huquqiy targ'ibot tadbirlarida fuqarolar va xodimlarga huquqiy bilimlar yetkazilib, qonunchilikdagi yangiliklar haqida

zarur ma'lumot berildi. Xususan, aholi ishtirokida turli aksiyalar, fleshmoblar va ommaviy tadbirlar o'tkazilgan bo'lsa, xodimlar uchun o'quv seminarlari uyushtirildi. Tadbirkorlik subyektlari vakillari bilan o'tgan uchrashuvlarda esa ular-

ga tegishli huquqiy maslahatlar berilib, aholi uchun 8 ta huquqiy qo'llanma tayyorlanib, foydalanish uchun tarqatildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni targ'ib etish maqsadida 13 ta videorolik, 116 ta ko'rgazmali targ'ibot materiallari ijtimoiy tarmoqlar orqali keng namoyish qilindi.

Bu tadbirlar nafaqat xodimlar, balki fuqarolarning ham huquqiy bilimini oshirishga xizmat qilishi bilan birga, profilaktika vazifasini bajarmoqda. Fuqarolar o'rtasida qonunbuzarliklarning oldini olish, huquqiy munosabatlarda adolatli yo'l tutishga, pirovardida, jamiyatda qonunga hurmat, adolat va mas'uliyat hissini mustahkamlashga zamin hozirlayapti. Qolaversa, xodimlarning faoliyatda qonunchilik talablarini to'g'ri qo'llash ko'nikmasini boyitishga hissa qo'shmoqda.

Shavkat NABIYEV,
mayor.

Qashqadaryo viloyati.

ДОЛЗАРБ МАВЗУ

ИС ГАЗИ: ундан сақланиш қоидалари

Ис газ (углерод оксиди) ҳидсиз заҳарли бирикма ҳисобланиб, табиий газ, ёқилғи, кўмир, ўтиннинг тўлиқ ёнмаслиги оқибатида ҳосил бўлади. Унинг концентрациясининг бино ичида жуда озгина ошиши ҳам одамларда заифлик ҳамда уйқучанлик каби ҳолатларни келтириб чиқаради.

Ис газининг ҳаводаги концентрацияси 0,08 фоизни ташкил этганда, инсонда бош оғриғи ва бўғилиш кузатилади, 0,32 фоизга етганда тана фалажланиб, одам ҳушидан кетади ҳамда тахминан 30 дақиқадан сўнг ҳалок бўлади. Унинг миқдори 1,2 фоизга тенглашганда, киши узоғи билан 3 дақиқада ҳаётдан кўз юмади.

Енгил даражадаги заҳарланишда бош оғриғи, бош айланиши, қулоқ шанғиллаши, кўнгил айланиши, қусиш, ҳушдан кетиш кузатилади.

Ўртача даражада заҳарланиш мушаклар бўшашиши, нафас қисиши, юрак уриши тезлашуви, артериал қон босимининг пасайиши, кўнгил айланиши, ақл хиралашиши, юзда қирмизи доғлар пайдо бўлиши билан кечади.

Оғир заҳарланишда қон CO₂ билан тўйинган бўлади ва кислородни самарали таший олмайди. Натижада одам батамом ҳушдан кетади. Оёқлар кўкариб



ёки оқариб, юзда қирмизи доғлар пайдо бўлади. Юрак уриши тезлашиб, артериал қон босими кескин пасаяди. Нафас олиш секинлашади ва чуқурлашади. Мушаклар бўшашиб, табиий эҳтиёжларнинг беихтиёр бажарилиши кузатилади. Нафас олиш тўхтайдиган ҳаётдан кўз юмади.

Биринчи ёрдам кўрсатиш тартиби

Заҳарланиш манбаини имкон қадар тезроқ бартараф этиш (масалан: автомобиль двигатели, газ ускунаси ёки иситгични ўчириш) керак.

Ис газ билан заҳарланган кишини зудлик билан тоза ҳавога олиб чиқиш зарур, нафас олиши

тўхтаб қолганда, унга сунъий нафас бериш лозим. Бу тадбир бемор мустақил нафас олгунга қадар ёки биологик ўлим аломатлари пайдо бўлгунча давом эттирилади.

Баданни ишқалаш, оёқларга грелка қўйиш, қисқа вақт нашатир спирти буғларини ҳидлатиш (нашатир спирти бемор бурнидан камида 1 см узоқликда шимдиланган пахта ёки марлида бўлиши шарт, акс ҳолда спиртнинг ўткир ҳиди беморни фалаж ҳолатига олиб келиши мумкин) заҳарланиш оқибатларини тугатишга имкон беради.

Заҳарланиб қолган киши зудлик билан касалхонага олиб борилиши керак, чунки бирмунча кейинроқ ўпка ва асаб тизимида

оғир асоратлар вужудга келиши мумкин. Агар бемор ҳушида бўлса, тананинг юқори қисми қисиб турувчи кийимлардан бўшатилади, иссиқ чой, қаҳва ичирилади. Ҳар қандай ис газидан заҳарланиш даражасида бемор шошилиш ҳолда реанимация ёки токсикология бўлимига ётқизилади. Касалхонадан чиққан бемор терапевт ва невропатолог кузатувида бўлиши шарт, акс ҳолда кейинчалик унинг асоратлари юзга чиқиши мумкин.

Қуйидаги хавфсизлик қоидаларига амал қилинг:

- хонадонлар иситиш тизимларига табиий газнинг уланишида меъёрий талабларга риоя этиш;
- табиий газдан фойдаланишда техника хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш;
- ностандарт ва қўлбола иситиш воситаларидан фойдаланмаслик;
- қишки иситиш қурилмаларини назоратсиз қолдирмаслик;
- иситиш учун мўлжалланган печкалар ҳамда мўриларнинг соз ҳолатда бўлиши, яхши тозаланганлиги.

- яшаш ва иш жойларини етарли даражада, хоналарни эса мунтазам равишда шамоллатиш.

Фахриддин ПАЙЗИЕВ,
ИИБ Тиббиёт бошқармаси
бошлиғининг ўринбосари,
полковник.

SOHA FIDOYISI

«XASTIMOM» — POYTAHTNING TURIZM MAHALLASI

Olmazor tumanining «Xastimom» mahallasi bugun muhim ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy inshootlari bilan yurtimiz turizm salohiyatiga munosib hissa qo'shayotgan hududga aylandi. Bu yerda mahobatli Islom sivilizatsiyasi markazi, Hazrati Imom majmuasi, bir nechta tarixiy obidalar, Abdulla Qodiriy ijod maktabi, Turon axborot-kutubxonasi, Toshkent «Perfect» universiteti, 8 ta mehmonxona hamda 6 ta xostel qad rostlagan.



Mahallada qariyb 12 yildan buyon xizmat qilib kelayotgan profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Zohid Jo'rayev hudud osoyishtaligiga mas'ul. Zero, inspektorning vazifasi faqatgina huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilganlarini aniqlashdan iborat emas, balki odamlar bilan muloqot qilish, ularni tinglash, muammolarni oldindan bilib, bartaraf etishdir.

– Ayni vaqtda hududda 347 ta xonadon bo'lib, 4200 dan ortiq fuqaro istiqomat qiladi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Sanoat Yahyoieva. – Zohid Jo'rayev barcha xonadon egalariining ism-sharifigacha biladi. Bu uning har bir muammo va murojaatni o'z vaqtida hal qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunda mahalla fuqarolar yig'ini faollari va yettilikning hamkorligi ko'mak bo'lmoqda.

So'nggi yillarda hududda iqtisodiy va ijtimoiy faollik sezilarli darajada oshdi. Yangi qurilgan milliy savdo majmualari, hunarmandchilik markazlari mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, mahalla faollari tashabbusi

bilan «Ayollar daftari»dagi 79 nafar xotin-qiz, 12 nafar ishsiz yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy ishlar qilindi.

Hududdagi keng ko'lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari tufayli turli viloyatlardan ishchilar kelib ishlashadi. Bundan tashqari, mahallaning «Chorsu» bozoriga yaqinligi, bu yerda savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi fuqarolar sonining ko'pligi bois yil davomida 4 ta jinoyat qayd etildi. Shuning uchun mahalla «sariq» toifaga kiritilgan. Endilikda asosiy vazifa – jinoyat sodir bo'lishiga olib keluvchi omillarni tubdan bartaraf etish hamda turizm zonasi-ga aylangan hududda tinchlik va tartib-intizomni mustahkamlash orqali mahallani «yashil» toifaga o'tkazish.

Profilaktika katta inspektori uchun har bir xonadon, har bir fuqaro alohida qadrga ega. U ushbu mas'uliyatni to'la his etadi va uni har kunlik faoliyati bilan amalda isbotlab kelmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

■ Республика Каракалпакстан

Совет ветеранов системы внутренних дел объединяет заслуженных людей, многие годы добросовестно и самоотверженно работавших ради спокойствия граждан. Совет организует посещение ветеранов, оказывает им материальную и моральную поддержку по случаю праздников, а также вносит значимый вклад в воспитание молодых кадров, передавая им богатый опыт и знания.

Совет ветеранов ОВД Кунградского района совместно с районным ОВД провел мероприятие «Почтение нашим ветеранам», в рамках которого состоялась теплая беседа за пиалой чая.

Оно прошло под руководством советника министра внутренних дел Республики Каракалпакстан полковника в отставке Орынбая Турдакова и председателя Совета ветеранов Кунградского РОВД майора в отставке Турганбая Нуржанова.

– У нас более 380 ветеранов. К мероприятию, которое впервые организуется в Каракалпакстане, мы готовились почти полгода. Его цель – ближе познакомиться молодых сотрудников с жизненным путем и служебной деятельностью тех, кто долгие годы отдал системе. Среди ветеранов есть те, чьи потомки уже в третьем поколении продолжают службу в органах внутренних дел. Уважать их труд – наш долг.

Приглашены также ветераны, ранее служившие в системе, но впоследствии переехавшие в

другие регионы. Некоторые из них нашли возможность приехать и провести этот день с бывшими коллегами. Когда в зрелом возрасте твой труд получает должную оценку, когда чувствуешь внимание, благодарность и уважение – это согревает душу и придает силы. Думаю, что сегодня мы смогли подарить это ощущение каждому участнику, – сказал председатель Совета ветеранов Кунградского РОВД Т. Нуржанов.

Своими впечатлениями поделился и гость:

– Я, Жумагали Естилеуов, более 20 лет прослужил в системе МВД Республики Каракалпакстан, работал начальником поселкового отделения. Сегодня живу в городе Актобе (Казахстан). Нас, ветеранов, проживающих там, двенадцать человек, и мы поддерживаем связь. На мероприятие приехали пятеро. Искренне благодарны за организацию этой встречи. Спустя годы смогли увидеть товарищей, вспомнить минувшие дни.

В рамках программы был продемонстрирован видео-

ролик, посвященный сотрудникам органов внутренних дел, ушедшим из жизни. Альбом памяти, подготовленный ОВД Кунградского района на основе видеоматериалов, передан в дар музею МВД Республики Каракалпакстан.

Кроме того, руководитель Совета ветеранов МВД Республики Каракалпакстан вручил активным ветеранам районного ОВД почетные грамоты.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

ПОЧЕТ ВЕТЕРАНАМ

Проявление внимания к представителям старшего поколения, следование их наставлениям издавна является неотъемлемой традицией.



▶ 25-NOYABR – XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA BARHAM BERISH XALQARO KUNI

16 KUNLIK KAMPANIYA BOSHLANDI

Har yili 25-noyabr – Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish xalqaro kunidan boshlab 10-dekabr – Inson huquqlari kuniga qadar dunyo bo'ylab «Gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faollik» global kampaniyasi o'tkaziladi.



Suratda: Toshkent shahar IIBda o'tkazilgan tadbirdan lavhalar.



Mazkur tashabbus doirasida joriy yil BMT tomonidan kampaniya «Xotin-qizlarga nisbatan raqamli zo'ravonlikka barham berish uchun birlashaylik!» mavzusida tashkil etilmoqda. O'zbekistonda ham ushbu global tashabbus an'anaviy ravishda qo'llab-quvvatlanib, mamlakat miqyosida turli yo'nalishlardagi tadbirlar va muloqotlar orqali keng jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi boshchiligidagi, BMT tuzilmalari hamkorligida «Xotin-qizlarga nisbatan raqamli zo'ravonlikka barham berish uchun birlashaylik!» kampaniyasiga start berildi.

Kampaniya doirasida 25-noyabrdan 10-dekabrgacha mamlakatning barcha hududlarida turli tadbirlar, muloqot maydonlari, o'quv seminarlari va axborot kampaniyalari o'tkaziladi.



Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!

TAMADDUNNING TAMAL TOSHI

Mamlakatimizda biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar borasida tengdoshlarim bilan turli mavzularda munozaralar o'tkazish odatga aylangan. Bunday bahslar ba'zan tanaffuslarda yoxud darslar tugagandan keyin ham davom etadi.

Bosh qomusimizni o'rgatishga bag'ishlangan shunday bahslar asnosida tengdoshlarimdan biri konstitutsiyasiz yashayotgan xalqlar ham borligini aytib, bizni navbatdagi munozaraga chorladi. Shunda men konstitutsiya nafaqat barcha qonunlar, jamiyatda o'rnatiladigan tartib-qoidalar unga asoslanadigan Asosiy qonun, balki u tamaddunning tamal toshi ekanini isbotlashga intildim.

Rost-da, agar shunday bo'lmaganda, Sirdaryoning eng chekka va chegara hududida joylashgan kichkinagina qishloqda tug'ilib o'sgan bobom poytaxtdagi yoshlarga fizika qonuniyatlarini, algebra ayniyatlarini o'rgatadigan tafakkur sohibi bo'lib yetisharmidi? Yo ta'lim olish huquqi kafolatlab qo'yilgan Konstitutsiyamiz qabul qilingan yili maktabga ilk qadamlarini qo'ygan ota-onam respublikamizninggina emas, Markaziy Osiyoning ham eng nufuzli oliygohlarida tahsil olib, hozirgi mavqe va martabalariga erisharmidi?



Agar konstitutsiyaviy qoidalar asosida ta'lim tizimi yo'lga qo'yilmaganda, respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi, ochiqlik va shaffoflik bo'lmaganda, o'zim talay talabgorlar orasidan saralanib, O'zbekistondagi nufuzli ta'lim

muassasasi hisoblanadigan Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchisiga aylanarmidim?

Shuni faxr bilan ayta olamanki, litseyda ingliz tili, matematika, informatika kabi fanlar chuqur o'qitiladigan ta'lim maskanida milliy matematika dasturiga muvofiq talabalar oliy matematika bo'yicha qo'shimcha materiallar hamda mantiqning ma'lum bir qismini o'rganishadi. Shuningdek, informatika darslarida talabalar dasturlash, shaxsiy kompyuter xavfsizligi, grafik muharrirlar bilan ishlash, onlayn resurslar va boshqalar bo'yicha texnologik bilimlarga ega bo'lishadi.

Muxtasar aytganda, yangi O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida Uchinchi Renessans poydevorini qo'yadigan yoshlarning to'laqonli bilim olishi, alaloqibat, ajdodlar orzusi bo'lgan ma'naviyati yuksak ma'rifiy avlodning maydonga kelishi uchun zaruriy bo'lgan barcha huquqlar kafolatlangan.

Nurmuhammad DONABOYEV,
Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi.



Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50-modda.

EKOLOGIK TARBIYA VA INNOVATSION YONDASHUV

Bugungi kunda atmosferaning ifloslanishi, ichimlik suvi tanqisligi, iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolar insoniyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur muammolarning katta qismi tabiatga nisbatan befarqlik, resurslarni mas'uliyatsiz iste'mol qilish va ekologik savodxonlikning past darajasi bilan bog'liq. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta'minlashda Konstitutsiyadagi ekologik huquq va majburiyatlarni amalda tatbiq etish hamda ta'lim tizimi orqali ekologik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrda ekologik muvozanatning buzilishi nafaqat tabiat, balki iqtisodiy barqarorlik va aholi salomatligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Resurslardan tejamkor foydalanmaslik, chiqindilarni to'g'ri boshqarmaslik va atrof-muhitga nisbatan madaniy munosabatning shakllanmaganligi ekologik inqirozning asosiy sabablari sifatida qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik madaniyatni barvaqt shakllantirish va uni qonunchilik asosida mustahkamlash ekologik barqarorlikka erishishning eng samarali yo'lidir.

Ekologik madaniyatni shakllantirishni bolalik davridan boshlash lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tabiatni asrash va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, suv, yorug'lik, elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilarni tartib bilan tashlash, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish kabi



oddiy, biroq hayotiy ko'nikmalarni singdirish kelajakda mas'uliyatli fuqaro shakllanishiga zamin yaratadi.

Maktablarda biologiya, geografiya va ekologiya fanlarida atrof-muhit muammolari keng yoritiladi, biroq nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, chiqindilarni saralash va qayta ishlashga oid treninglar, maktab hududini obodonlashtirish,

hissi, ekologik xavflar haqida to'liq tasavvur va tabiatga mehrli bo'lish munosabatini shakllantiradi.

Oliy ta'lim tizimida ekolog-mutaxassis va o'qituvchilar uchun maxsus dasturlar, qayta tayyorlash kurslari, ekota'lim markazlari va amaliy tadqiqot maydonlarini yaratish, xalqaro ta'lim va ilmiy hamkorlikni kengaytirish ustuvor hisoblanadi.



ko'chat ekish aksiyalari, suv, havo va tuproq tozaligi bo'yicha jazzi tadqiqotlar o'tkazish ham alohida ahamiyatga ega. Bunday jara-yonlar o'quvchilarda mas'uliyat

Ekologik muammolarning avj olishi tabiatga nisbatan befarqlik va ekologik savodxonlikning yetarli emasligi bilan bog'liq. Shu bois Bosh qomusimizda belgilangan ekologik huquq va majburiyatlarni amalda ta'minlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ekologik madaniyatni shakllantirish strategik ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha tizimli ravishda amalga oshiriladigan ekologik tarbiya va innovatsion yondashuvlar ekologik barqarorlikka erishishning eng muhim kafolatlaridan biridir.

Ruzmat DADAJONOV,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti.

KASB FIDOYISI

TASHABBUSKOR INSPEKTOR

Shirin shahridan Toshkent viloyati va Jizzax viloyatigacha ulanib ketgan avtomobil yo'li o'tgan. Ayniqsa, shaharning Tojikiston chegarasida joylashgani yo'lining tranzit ahamiyatini bir necha karra oshiradi. Shuning uchun ham bu yerdan har kuni yuzlab yuk avtomobillari o'tadi. Mana shunday sharoitda yo'l harakati xavfsizligini saqlash nihoyatda muhim.



Shahar IIB YHXG YPX inspektori, katta serjant Sherzod Jumanovning xizmat jarayoni tig'iz. U «Janubiy Mirzacho'l» kanalining kesib o'tgan yo'l ustidagi xizmat idorasida hujjatlarni rasmiylashtirishga ham, yo'llarda avtomobillarning harakatini birdek tartibga solishga ham ulgurishga harakat qiladi.

Sherzod – mustaqillik tengdoshi. U 2013-yili IIV Akademiyasi Serjantlar tayyorlash bo'yicha oliy kurslarini tugatgach, Sirdaryo viloyati IIB YHXB 4-safarbarlik otryadi katta inspektori lavozimida, 2023-yildan buyon esa Shirin shahrida faoliyat ko'rsatyapti.

Shirini shahrini Bekobod bilan bog'lab turadigan Farhod ko'prigida ba'zan yo'l harakati qoidalarini buzish holatlari uchraydi. Ko'priktorligi, yuqori og'irlikdagi yuklarni o'tkazishga mo'ljallanmagani uchun bu yerdan katta yuk avtomobillari o'tishi taqiqlangan. Lekin hamma ham mazkur cheklovga amal qilishni xohlayvermaydi. Ba'zan yigirma tonnalab yuk ortib olgan yuk avto-

mobillari ko'prikdan imi-jimida o'tib ketishga harakat qilishadi. Shunday paytda katta serjant Sherzod Jumanov ularga yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini eslatib qo'yishiga to'g'ri keladi.

Lavhamiz qahramonining kun tartibida idoralar, ta'lim maskanlarida yo'l harakati qoidalarini targ'ib qilish ham o'rin olgan. U tez-tez shahardagi litsey, texnikumi va o'rta maktablarda bo'lib turadi. Bu yerda tashkil etilgan yo'l harakati imitatsiya qilingan maydonchalarda yoshlar bilan o'quv mashg'ulotlarini o'taydi. Darvoqe, uning sa'y-harakatlari bilan shahardagi bir qancha ta'lim muassasalari oldida yangi uslubdagi piyodalar yo'laklari, ko'chma svetoforlar o'rnatildi. Bu esa maktab o'quvchilarining xavfsiz harakatlanishida qo'l kelmoqda.

**Abdurahmon
MUSTAFOQULOV,**
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

YO'L BOSHIDA



SAYOQ YURSANG...

Navoiy viloyati IIB HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlanayotgan bolalarning vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida sport mashg'ulotlari, psixologik treninglar tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning ko'chada bemaqsad yurmasligi, huquqbuzarlik sodir etmasligi yuzasidan ko'plab targ'ibot-nazorat tadbirlari va tungi reydlar o'tkaziladi.

Dilshod (ismlari o'zgartirildi) so'nggi paytlarda ota-onasi bilan tez-tez tortishadigan bo'lib qoldi. Boshi qotgan ota-ona buni o'smirlik davridagi jizzakilik deya, unga biroz erkinlik berishga qaror qilishdi. Ammo ish-tashvish deb, nazoratni butunlay yo'qotib qo'yg'nanlarini sezmay qolishdi.

Endi Dilshod ularning ishonchini suiste'mol qilib, xohlasa maktabga darsga borar, biror bekorch, bebosh sherik topgan kuni esa ko'cha kezardi. Markaz xodimlari bozorda olib borgan nazorat tadbiri chog'ida uni ko'rib qolishdi. Dilshod dars mashg'ulotlariga qatnashish o'rniga o'ziga o'xshagan 2 nafar o'rtoq'i bilan rastalarni aylanib yurardi. Bolalarni markazga olib kelib, ota-onalarini chaqirtirishdi. Ular bilan profilaktik suhbat o'tkazilib, farzandlari bir yil mobaynida inspektor-psixologlarning monitoring nazoratida bo'lishi aytiladi. Shuningdek, bolalarini tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarini ba-

jarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining tegishli moddasiga ko'ra javobgarlik belgilandi.

To'g'ri, bolalar darsdan qochganini hisobga olmasa, boshqa biror tartibbuzarlik sodir etgani, birovga ozor yetkazgani yo'q. Lekin bekorchilik ularni huquqbuzarlikka boshlamaydi yoki biror ko'ngilsizlikka duchor qilmaydi deb kim kafolat beradi?! Axir «Sayoq yursang, tayoq yeysan» deb bejizga aytishmagan-ku.

Shuningdek, markazning mas'ul xodimlari notinch oilalarga borib, bolalarning yashash sharoitlarini o'rganishadi. Ularning ota-onalari bilan suhbat o'tkazib, farzandlarini qarovsiz va nazoratsiz qoldirmaslik kerakligini tushuntirib, bu borada qonuniy javobgarlik mavjudligini eslatishadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Buxoro viloyati Qorako'l tumani IIB xodimlari



Урок духовности и просвещения

ГАРАНТИИ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА В НАШЕМ ОСНОВНОМ ЗАКОНЕ

(8 декабря – День Конституции Республики Узбекистан)

Обновленный Основной закон Республики Узбекистан, принятый на основе всенародного референдума, закрепил курс на построение правового, социального, светского государства. Концепция «человек – общество – государство», пронизывающая Конституцию, ставит человека на первое место, подчеркивая, что именно он является главной ценностью.

Конституция Узбекистана провозглашает приверженность идеалам демократии, равенства, социальной справедливости. В ней закреплены личные права и свободы, политические, экономические, социальные, культурные, экологические права человека и гражданина.

Основной закон гласит: «Демократия в Республике Узбекистан базируется на общечеловеческих принципах, согласно которым высшей ценностью является человек, его жизнь, свобода, честь, достоинство и другие неотъемлемые права» (ст. 13). Государство, должностные лица и граждане действуют строго в соответствии с Конституцией и законами. Национальные институты по правам человека дополняют существующие формы и средства защиты прав человека, содействуя развитию гражданского общества. В стране усиливается роль Уполномоченного Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (омбудсмана), Уполномоченного Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам ребенка (детского омбудсмана), Уполномоченного при Президенте Республики Узбекистан по защите прав и законных интересов субъектов предпринимательства, Национального центра Республики Узбекистан по правам человека.

В стране признается безусловное верховенство Конституции и законов. При этом Конституция имеет высшую юридическую силу, прямое действие. Ни один официальный документ, направленный на установление, изменение или отмену общеобязательных правовых норм, не может противоречить ее принципам и нормам (ст. 16).

В Узбекистане гарантируются права и свободы человека согласно общепризнанным нормам международного права и в соответствии с Конституцией – граждане имеют одинаковые права и свободы, равны перед законом независимо от пола, расы, национальности, языка, религии, убеждений, социального происхождения, общественного положения.

Права и свободы человека незыблемы: никто не вправе без суда лишить или ограничить их.

В Конституции закреплены гарантии: лицо не может быть задержано без решения суда на срок более 48 часов; обвиняемый вправе не свидетельствовать против себя; судопроизводство осуществляется на основе состязательности и равноправия сторон. В целях реализации принципа соразмерности правового воздействия пересмотрено свыше 150 мер в законодательных актах, включая декриминализацию некоторых деяний, изменение видов наказаний, отмену административной ответственности, вытекающей из гражданско-правовых отношений.



Важнейшим является положение: «Честь и достоинство человека неприкосновенны. Ничто не может быть основанием для их умаления» (ст. 26). Говоря об этом, Президент Шавкат Мирзиёев в выступлении на церемонии, посвященной 34-й годовщине государственной независимости, заявил: «Новый Узбекистан является и впредь останется правовым государством, в котором права и свободы, интересы и достоинство человека превыше всего».

В результате конституционной реформы количество норм, касающихся социальных обязательств, в Основном законе увеличилось в три раза. Это означает, что государственная политика направлена на справедливое распределение благ, обеспечение достойного уровня жизни граждан. В Конституции закреплены нормы о поддержке

уязвимых слоев населения, в том числе лиц с инвалидностью, нетрудоспособных, престарелых. Исходя из этого усовершенствована система адресной помощи, внедрен Единый реестр соц-



защиты, осуществляется работа по принципам «махаллабай», «хонадонбай», позволяющим своевременно решать насущные вопросы граждан. Реализуется общенациональная программа «От бедности к процветанию», в числе приоритетов которой создание для уязвимых слоев устойчивых источников дохода, условий для получения качественного образования; повышение общественно-политической активности женщин; расширение объемов гарантированной медицинской помощи.

ННО выступают ключевым мостом, соединяющим гражданское общество с государственным аппаратом и обеспечивающим двустороннюю коммуникацию. Неуклонный рост их числа (сегодня более 12 тысяч) способствует повышению подотчетности госорганов перед общественностью.

В соответствии с нормами обновленной Конституции масштабная работа проводится в рамках реализации Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека. За последние четыре года принято два кодекса, 33 закона, 15 указов и 11 постановлений Кабинета Министров, напрямую касающихся защиты прав человека. В их числе законы, направленные на совершенствование системы поддержки семьи и женщин, усиление наказания за торговлю людьми, предупреждение пыток в отношении задержанных и др.

Значимым достижением стало утверждение Концепции обеспечения свободы совести граждан и государственной политики в религиозной сфере. Разработанная на основе национально-исторического опыта развития государственности и общечеловеческих ценностей, Концепция направлена на обеспечение стабильности в многонациональном и многоконфессиональном Узбекистане.

В сфере сокращения безгражданства достигнут исторический прогресс. Об этом свидетельствует статистика: с 2017 по 2024 год гражданство Узбекистана получили более 80 тысяч человек (и эта цифра продолжает расти).

Узбекистан значительно усилил образовательную деятельность в области прав человека. Как сообщает Национальный центр по правам человека, в регионах организованы межведомственные курсы и семинары, охватившие около трех тысяч представителей правоохранительных органов. Высокий уровень обучения обеспечивался ведущими специалистами национальных структур (НЦПЧ, МВД, Правоохранительная академия, Институт государства и права АН) и международными экспертами.

Системные реформы, основываясь на конституционных гарантиях, активно проводятся в рамках Государственной программы по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030»: осуществляется политика строительства Нового Узбекистана – государства, в котором человек, его права, свободы и законные интересы признаются высшей ценностью.

Азиз ИМАМОВ,
кандидат юридических наук,
майор.
Камола КОДИРОВА,
майор.



HUQUQ-TARTIBOT POSBONLARI

So'nggi yillarda Shahrixon tumanida jinoyatchilikka qarshi kurashishda, uning oqibatlariga emas, balki sabab va shart-sharoitlariga qarshi kurashish amaliyoti joriy etildi. Bu usul nafaqat jinoyatlar sonini kamaytirish, balki odamlar ongida javobgarlik va xavfsizlik hissini kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Shu bois yilning o'tgan to'qqiz oyi davomida tumanda talonchilik, bosqinchilik, avtomashina o'g'irlash kabi og'ir turdagi jinoyatlar sodir etilmadi. Bu natija ortida ichki ishlar organlari, mahalla faollari va aholi hamkorligida yo'lga qo'yilgan keng qamrovli ishlar, doimiy nazorat va tahlil tizimi turibdi.

Bu kabi ijobiy natijalarni hududlarda ham kuzatish mumkin. Masalan, mavjud 79 ta mahallaning 20 tasida jinoyatlar soni sezilarli darajada kamaygan bo'lsa, 54 ta mahallada umuman jinoyat sodir etilmadi. Bu esa har bir fuqaroning ogohlighi, hamjihatlik muhitining shakllanganidan dalolat beradi. Biroq bu bilan ko'ngil taskin topmasligi kerak. Shuning uchun jinoyatchilik



Shahrixon tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Sherzodbek Akbarov bo'linma boshlig'i, mayor Murodiljon Karimov bilan.

darajasi yuqori bo'lgan «Andijonlik», «Barkamol avlod», «Namozgoh», «Oq oltin» va «Saroy» mahallalarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi. Unda profilaktik reydlar, manzilli uchrashuvlar, yoshlar bilan suhbatlar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar qamrab olingan.

– Asosiy vazifamiz jinoyatga olib keladigan omillar ildizini aniqlab, ularni bartaraf etish, – deydi tuman

IIB boshlig'i, podpolkovnik Sardor Arziyev. – Shu maqsadda har bir mahallada «Xavfsiz hudud» tamoyili asosida ish yuritilyapti. Ishonchimiz komilki, profilaktikaning ta'siri jazodan ko'ra samaraliroq bo'ladi. Bu jarayonda zamonaviy tahdidlardan biri – kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi ham muhim o'rin tutadi. Internet imkoniyatlarining kengayishi bilan bir qatorda, firibgarlik usullari ham murakkablashmoqda.



Navbatchilik qismi katta inspektori, mayor Ochilbek O'tabbayev va safdor Abdushukur Bozorboyev xizmat jarayonida.

Tumanda qayd etilgan kiberjinoyatlarning 65 foizida noma'lum shaxslar fuqarolarning bank kartalaridan pul yechib olgan. Qolgan 35 foizida esa odamlar internet orqali onlayn savdo jarayonida mablag'ni oldindan o'tkazib berib, firibgarlarga ishongan holda zarar ko'rishgan. Bu holatlar aholi orasida kiberxavfsizlik madaniyati yetarli-cham shakllanmaganini anglatadi. Shu bois tuman IIB shaxsiy tarkibi tomonidan fuqarolar uchun «Kiberjinoyatlardan ehtiyot bo'ling!», «Noma'lum havolalarni ochmang!» kabi mavzularda targ'ibot tadbirlari muntazam o'tkazilmoqda.

Hududda xavfsiz muhit yaratish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki har bir fuqaroning ham burchi ekanini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Jinoyatlarning barvaqt oldini olish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, mahallalarda ijtimoiy hamjihatlik muhitini mustahkamlash bugungi tinchlik va ertangi barqarorlikning garovidir.



Tergovchi, kapitan Furqatbek Abdufattohov fuqarolar bilan.



Bo'linma boshlig'i, mayor Murodiljon Karimov, profilaktika inspektori, katta leytenant Sardorbek Erkinov, tezkor harakatlanish guruhi xodimi, kichik serjant Iqboljon Abdazovlar xizmat paytida.

MA'NAVIYATGA XIYONAT

Bu illat odamni, avvalo, ruhan yemiradi, hayot mazmunini o'g'irlaydi. Shu bois unga qarshi kurash faqatgina huquq-tartibot idoralarining emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasiga aylangan.

Bu borada Andijon viloyati IIB hamda hamkor idoralar tomonidan tashkil etilayotgan nazorat tadbirlari ijobiy samara beryapti. Yaqinda Marhamat tumanida bo'lib o'tgan ana shunday tadbirda 1979-yilda tug'ilgan Anvarjon Hamroyev (ism-shariflar o'zgartirildi) muayyan miqdordagi gashish giyohvandlik moddasini 2 ming AQSh dollari evaziga sotmoqchi bo'lgan paytda qo'lga olindi. Giyohvandlik vositasi dalilii ahyo sifatida olindi va hozirda tergov harakatlari davom etmoqda. Afsuski, bu kabi misollar juda ko'p.

– Joriy yilning o'tgan 10 oyi davomida viloyat miqyosida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq sakkiz yuzdan oshiq holat aniqlandi, – deydi viloyat IIB JQB boshlig'i vazifasini bajaruvchi, podpolkovnik Bahodirjon Nurmatov. – Shulardan 61 tasi chetdan olib kirish holati bo'lib, jami 80 kilogramm atrofidagi giyohvandlik moddalari dalilii ahyo sifatida musodara qilingan.

Giyohvandlik moddalari iste'moli inson organizmi uchun jismoniy halokat, ruhiy depressiya va ijtimoiy inqiroz manbayidir.

– Uning iste'moli dastlab «taskin beruvchi» kabi tuyulishi mumkin, ammo har bir doza inson miyasidagi asab tizimi faoliyatini izdan chiqaradi, – deydi oliy toifali shifokor Jamoliddin Karimov. – U doimiy ruhiy bog'liqlikka sabab bo'ladi. Bir marta sinab ko'rgan yoshning keyin uni tashlash ehtimoli juda kam. Shuning uchun asosiy e'tiborni profilaktikaga, ya'ni yoshlar ongini himoya qilishga qaratish zarur.

Bugun ijtimoiy tarmoq orqali tarqalayotgan «hozircha bezarar» deb ataladigan moddalarning ko'pchiligi aslida giyohvandlikning ilk bosqichidir. Shu bois ta'lim muassasalaridagi targ'ibot ishlari, ota-onalar bilan doimiy muloqot, sog'lom turmush tarzini yoshlar ongiga singdirish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

– Viloyatimizda har oyda bir marta kompleks tadbirlar tashkil etilmoqda, – deydi podpolkovnik Bahodirjon Nurmatov. – Uning doirasida o'quv muassasalari, mehnat jamoalari va aholi turar joylarida targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar sonini 25–30 foizga qisqartirishi mumkin.

Viloyatda giyohvandlikka qarshi kechayotgan bu kurash har bir fuqaro uchun ogohlilik qo'ng'irog'idir. Chunki faqat sog'lom ong, pok niyat va birdam jamiyatgina og'usiz kelajakni yarata oladi.



KIBERGIGIYENA — ZAMONAVIY EHTIYOJ

G'ayrat Sultonov telefon raqamiga kelgan xabarnomadan sergak tortdi. Unda «Shu rasmlar sizga tegishli ekan», degan satr yozilgan edi. «Mening suratim boshqalar qo'lida nima qilyapti?» deb o'yladi va faylni ochdi. Biroq ekranda hech qanday surat paydo bo'lmadi. «Demak, anglashilmovchilik bo'libdi», deb o'z ishini davom ettirdi. Ammo birozdan so'ng plastik kartasidagi pullar yechib olinganini bilib qoldi. Ana shundagina u — bu oddiy xabarnoma emas, firibgarlarning nayrangli ekanini tushundi.

– 2025-yilning 9 oyi davomida Andijon viloyatida 6709 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, shularning 2684 tasi, ya'ni qariyb 40 foizi axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlardir, – deydi viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi xodimi, katta leytenant Shamsiddin Sharifjonov. – Ushbu jinoyatlarning 923 tasi firibgarlik, 1665 tasi esa o'g'rilik bilan bog'liq holatlardir. Bu viloyatdagi jami firibgarlik jinoyatlarining 78,2 foizi va jami o'g'rilikning 68,5 foizi aynan kiberjinoyatlar hisobiga to'g'ri

kelmoqda. Joriy yilning 10 oyi davomida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar soni o'tgan yilga nisbatan 2,3 barobarga ko'paygan. Eng e'tiborlisi, ularning 96,4 foizini aynan bank kartalari bilan bog'liq holatlar tashkil etadi.

Firibgarlar ko'pincha plastik karta egalari «to'lovni amalga oshirish», «yutuqni olish», «rasmni ko'rish» kabi bahonalar bilan SMS-xabarnoma yoki messenger orqali kod yuborishni so'raydi. Aslida esa bu kodlar orqali shaxsiy va bank ma'lumotlariga ega bo'lib, kartadagi mablag'larni o'zlashtirishadi.



Insonlar borki, ularning butun hayoti fidoyilik bilan sug'orilgan. Ular o'z manfaatidan ko'ra, atrofdagilarning tinchligi va osoyishtaligi uchun kurashadi. Asaka tumanida istiqomat qiluvchi Ixvoliddin Jo'rayev ana shunday odamlardan. Zamondoshimizning hayoti, faoliyati va maqsadi yo'l xavfsizligini ta'minlash, insonlar hayotini asrashga bag'ishlangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.



YO'LLARGA YO'LDOSH UMR

– Asaka tumanidagi avtomobilsozlik texnikumini tugatgach, 1990-yilda ichki ishlar organlariga qabul qilinganman, – deb yodga oladi suhbatdoshim. – Xizmat faoliyatim davomida yo'l harakati xavfsizligi inspektori vazifasida xizmat qildim. Qishning ayozli kunida ham, yozning jazirasida ham xizmat yo'llarda o'tardi. Mashinalar harakatini tartibga solish, piyodalar xavfsizligini ta'minlash men uchun faqat vazifa emas, balki hayot tarzimga aylangandi.

Yillar davomida u ko'plab avtohalokatlarga guvoh bo'lgan. Ba'zi fojialarda bevaqt hayotdan ko'z yumgan yurtdoshlarining taqdiri unga qattiq ta'sir qilgan.

Ana shunday voqealardan keyin Ixvoliddin aka bir narsani chuqur his qilgan — yo'ldagi har bir ehtiyotsizlik ortida bir oilaning fojiasi mujassam. Shu bois nafaqaga chiqqanidan keyin ham bu sohani tark etmadi, balki boshqacha yo'l bilan xizmatini davom ettirishga qaror qildi.

– Biz xizmat qilgan paytlarda ayniqsa, mast holda avtomobil boshqarish yoki ortiqcha tezlikda harakatlantirish holatlari ko'p uchrardi, – deydi u suhbat davomida. – Hozirgi kunda haydovchilarda mas'uliyat hissi ancha ortgan. Ular xatoning oqibati faqat o'zlariga emas, boshqalarga ham zarar yetkazishi mumkinligini yaxshi tu-

shunishadi. Ammo bu ichki ishlar organlari xodimlari vazifasi yengillashdi, degani emas. Har doim hushyor va talabchan bo'lish zarur.

Iste'fodagi katta serjant Ixvoliddin Jo'rayev hozirda Marhamat tumanidagi «Avtostart» nomli xususiy avtomaktabda faoliyat yuritmoqda. U yerda bir paytning o'zida 50 nafarga yaqin tinglovchiga ustozlik qiladi. Ularga faqat avtomobil boshqarishni emas, balki yo'ldagi mas'uliyat, ehtiyotkorlik va javobgarlikni ham o'rgatadi. Shuningdek, ichki ishlar organlarida o'tkazilayotgan «Ustoz va shogird» tadbirlarida faol ishtirok etib, o'z tajribasini yoshlar bilan bo'lishmoqda.

SUKUNAT ORTIDAGI FIG'ON: IKKI HOLAT, BIR ILLAT

Andijon viloyatida sodir etilgan ikki qotillik keng jamoatchilikning e'tiborini tortibgina qolmasdan, qalblarni larzaga soldi. Xo'jaobod tumanida yashovchi fuqaro mast holda turmush o'rtog'iga pichoq o'qtaldi. Yakuni-da esa ish yuzasidan vaziyatga aralashgan hudud profilaktika inspektorini pichoqlab qo'ydi. Ikkinchi holatda esa Andijon shahrida yashovchi erkak turmush o'rtog'ining umriga zomin bo'ldi. Boisi, ayol maktabda farroshlik qilar, er esa uning ishlashiga qarshi edi. Ro'zg'ordagi yetishmovchilik er-xotin o'rtasidagi ziddiyatga sabab bo'ldi.

OILAVIY MUAMMOLAR E'TIBORSIZ QOLMOQDA

Har ikkala fojiani tahlil qiladigan bo'lsak, fikrlar bir sababda to'qnashadi: oila ichidagi muammolarning yechimsiz qolishi. Er-xotin o'rtasidagi tushunmovchilik, fe'llar bir-biriga

mos kelmasligi, ichkilik, ishsizlik, turmush bosimi, muloqotning yo'qligi — bularning barchasi, garchi oiladagi o'zaro muammo, tashvishga o'xshasa-da, natijasi jamiyatga soya solmoqda.

– Biz bor tajribamizni ishga solib, farzandlarimizga nafaqat ta'lim, balki tarbiya ham beryapmiz, – deydi andijonlik o'qituvchi Fotimaxon Fayziyeva. – Biroq ba'zi oilalardagi muhit yigit-qizlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilmoqda. Oilada sog'lom muhit, o'zaro hurmat bo'lmasa, farzandlar qanday qilib hayotga tayyorlanadi? Biz kattalar avval o'zimizni tarbiya qilishimiz kerak.

Andijon shahrida faoliyat yurituvchi ruhshunos Gulbahor Ibodullayeva esa o'z faoliyati davomida bu kabi holatlarga ko'p duch kelayotganini aytadi:

– Oilaviy mojarolar haqida fikr yuritarkanmiz, ayolning sukut saqlashi, er o'zini haq deb bilishi fojiga olib kelmoqda. Sukunat tushkunlik belgisi bo'lmasligi kerak, u erga nisba-

tan hurmat ifodasi bo'lsagina natijasi yaxshi yakun topadi. Biz oilalarga o'zaro tinglashni, tushunishni, hamdard bo'lishni o'rgatishimiz kerak.

To'g'ri, mutaxassis sifatida voqeaga baho berish birmuncha osonroq. Biroq ana shu muhitda yashash qiyin. Shuning uchun aybdorni izlagandan ko'ra sabablarni tahlil qilgan afzalroq.

MUAMMO MAVJUD, YECHIM-CHI?

Umuman olganda, biz oilaviy munosabatlarga qanchalik e'tibor qaratyapmiz? Oilalarning mustahkamligi faqat nikoh yoki qon-qardoshlik bilan emas, balki munosabatlar madaniyati bilan belgilanishi kerak emasmi? Bu kabi holatlarning oldini olish uchun nima qilish kerak?

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunga kelib mahallada

oilalar bilan ishlaydigan maxsus psixologik maslahat guruhlarini faoliyatini shakllantirish kerak. Bunda nuroniyalar, otinoyilar tajribasidan foydalanish mumkin. Mojarolar sudga yetib bormasdan, shaxsiy maslahat orqali hal qilinishi darkor. Ichkilikbozlikka qarshi qat'iy targ'ibot olib borilish zarur. Oilalarda ayollar mehnatiga bo'lgan munosabatni o'zgartirish shart.

XULOSA

Har qanday jinoyatni jazo emas, uning oldini olish hal qiladi. Har bir erkak va ayol oila qurishni mas'uliyat deb bilishi kerak. Farzandlar tarbiyasida nafaqat gap, balki fe'l-atvor, muhit va sevgi muhim. Agar saboq olmasak, yana qaysidir xonadonda ertangi kun fojiasi uchun bugundan poydevor tiklanishiga sharoit yaratib bergan bo'lamiz.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Saminjon HUSANZODA tayyorladi..

ЭХТИРОМ

ЖАСОРАТ ВА МАТОНАТ ЙЎЛЛАРИ

Ички ишлар органларида хизмат қилиш — бу шунчаки меҳнат ёки кундалик вазифа эмас. Бу — юрт осойишталигини таъминлаш, жиноятчиликка қарши курашиш, жамиятда қонун устуворлигига эришишдек юксак вазифаларни бажаришни ўз зиммасига олган фидойи инсоннинг матонатли умр йўлидир. Бурчига, қасамёдига содиқ қолган ҳолда, хизмат машаққатларини енгиб ўтиб, пенсияга чиқиш ҳар бир ходим учун катта шараф, фахр ва ҳурматга сазовор йўл саналади.



Шу маънода, Хоразм вилояти ички ишлар органлари тезкор-қидирув соҳасида узоқ йиллар фидойилик билан хизмат қилган подполковниклар Фарҳод Салаев, Равшанбек

Жуманиёзов, Илҳом Салаев ва Умидбек Зариповнинг пенсияга кузатиш муносабати билан ўтказилган тадбир чин маънодаги эҳтиром, ҳурмат ва миннатдорлик руҳида кечди.

Маросимда вилоят ИИБ бошлиғи, полковник Абдумажид Шермухамедов иштирок этиб, пенсияга кузатилаётган ходимларнинг фаолиятига алоҳида тўхталди. Уларнинг матонати,

айниқса, ҳар қандай вазиятда қасамёдга содиқ қолганини алоҳида қайд этди. Анъанага кўра, фахрийларга миллий тўн ва дўппи кийдирилиб, эсдалик совғалари топширилди.

Тадбир видеоконференция шаклида барча туман-шаҳар ички ишлар органлари шахсий таркибига ҳам намоиш қилинди. Бу жараёнда ҳудудларда хизмат олиб бораётган ходимлар ҳамкасбларининг пенсияга чиқишини чин юракдан қутлаб, уларнинг собитқадамлиги, қалтис ва оғир вазиятларда ҳам ҳеч қачон орқага чекинмагани, зиммасидаги масъулиятни устувор деб билгани учун миннатдорлик билдиришди. Шунингдек, уларга келгусидаги ҳаётида бардавом саломатлик ва омад тилашди.

Нилуфар ЖАББОРОВА,
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

ОРАМИЗДАГИ ОДАМЛАР

СПОРТ – УНИНГ ҲАЁТИ

ИИБ Фахрийлар кенгаши аъзоси, истеъфодаги полковник Файрат Қосимов ички ишлар органларидаги кўп йиллик хизмат фаолиятини якунлагач, сўнгги беш йилдан буён Анъанавий таэквондо федерацияси президенти сифатида қизғин иш олиб бормоқда.

Файрат Қосимов хизмат фаолиятини жиноят-қидирув бўлинмасидан бошлаб, ИИБнинг турли тузилмаларида самарали меҳнат қилган. ИИБ «Динамо» жисмоний тарбия-спорт жамиятининг тикланишига муносиб ҳисса қўшиб, 2005–2020 йилларда жамият раисининг ўринбосари лавозимида самарали фаолият кўрсатган. Шунингдек, у ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимлари ўртасидаги қўл жанги бўйича чемпионатларда бош ҳакам сифатида ишлаган, «Динамо»да 8 та спорт тури бўйича Спартакиада ташкилотчиларидан бири бўлган.

Лавҳамиз қаҳрамони, пенсияга чиққан ҳам, спорт соҳасидаги фаолиятини давом эттираётгани таҳсинга сазовор. У айни пайтда Анъанавий таэквондо федерацияси ҳамда Ўзбекистон Комбат таэквондо президенти, АҚШнинг Орегон штатида жойлашган Бутунжаҳон профессионал таэквондо ташкилотининг вице-президенти ҳисобланади.

Федерация спортчилари унинг раҳбарлиги остида жаҳон чемпионатлари, жаҳон кубоклари ва бошқа халқаро мусобақаларда мунтазам иштирок этиб, совринли ўринларни қўлга киритиш орқали мамлакатимиз нуфузини муносиб ҳимоя қилиб келмоқда.

– Федерациямиз ёшлар билан ишлашга алоҳида эътибор қаратади. Улар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, ватанпарварлик руҳини кучайтириш бўйича кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда. Бу борада ИИБ билан ҳамкорлик тўғрисидаги меморандум ҳам имзолаганмиз, – дейди лавҳамиз қаҳрамони.



Ф.Қосимов АҚШ ва Осиё мамлакатларидаги кўплаб халқаро семинар ва конференцияларда иштирок этган, Тошкент шаҳрида илк профессионал октагон жангларини юқори савияда ташкил қилган. Албатта, бу жараён жуда катта меҳнатни талаб қилиши шубҳасиз.

Истеъфодаги полковник Ф.Қосимов 9-ДАН қора белбоғ соҳиби. Бу унинг дунёда санокли грандмастерлардан бири эканлигидан далолат беради.

Яқинда у Филиппиннинг Багио шаҳрида ўтказилган гала тадбирида қатнашиб, ну-

фузли халқаро мукофот билан тақдирланди. Бошқача айтганда, МДХ ва Марказий Осиё давлатлари орасидан халқаро мукофотга сазовор бўлган илк спорт арбоби сифатида эътироф этилди.

Ёшларимизда юртга садоқат туйғусини шакллантириш, уларга ватанпарварлик юксак ахлоқий тамойил эканини тарғиб қилиш йўлида мардонавор ҳаракат қилаётган фидойи инсоннинг келгуси фаолиятида ҳам янгидан-янги зафарлар тилаб қоламиз.

Аброр ПОЁНОВ,
ўз мухбиримиз.

■ Сурхандарьинская область

ОТВЕТСТВЕННО И ОБЪЕКТИВНО

В обеспечении правоохранительной функции государства следственные органы играют ключевую роль. Следственная группа при ОВД Ангорского района добросовестно выполняет возложенные на нее задачи.



С начала года сотрудниками группы рассмотрено более 360 уголовных дел, по каждому из которых принято объективное и законное решение. Тщательно изучены случаи дорожно-транспортных происшествий, мошенничества, незаконного оборота наркотических средств, угона транспортных средств. По каждому факту дана правовая оценка, что сыграло важную роль в при-

влечении виновных лиц к ответственности.

– В последнее время количество киберпреступлений значительно растет, – отмечает следователь следственной группы капитан Хайрулло Хушбоков. – Увеличиваются случаи интернет-мошенничества, незаконных посягательств на банковские карты, кражи персональных данных. Многие граждане из-за доверчивости становятся жерт-

вами подобных схем. Поэтому мы уделяем особое внимание профилактической работе.

Следственная группа совместно с инспекторами профилактики проводит встречи, разъяснительную работу по вопросам кибербезопасности в махаллях. Цель – повысить правовое сознание граждан и сформировать навыки безопасного использования интернета.

Благодаря системному подходу удалось снизить количество краж и преступлений с участием несовершеннолетних по сравнению с прошлым годом. Еще одним важным результатом стало задержание и передача правосудию трех граждан, находившихся в розыске. Сотрудники следственной группы считают приоритетом прозрачность, объективность и профессионализм в работе.

Ответственность, сплоченность и трудолюбие сотрудников в ежедневной службе вносят значительный вклад в обеспечение правопорядка в районе.

**Феруза
РАХМОНКУЛОВА,
соб. корр.**



Гражданин Республики Узбекистан и государство связаны взаимными правами и обязанностями.

Права и свободы человека, закрепленные в Конституции и законах, являются незыблемыми и никто не вправе без суда лишить или ограничить их.

Права и свободы человека действуют непосредственно. Права и свободы человека определяют суть и содержание законов, деятельности государственных органов, органов самоуправления граждан и их должностных лиц.

Меры правового воздействия на человека, применяемые государственными органами, должны основываться на принципе соразмерности и быть достаточными для достижения целей, предусмотренных законами.

Все противоречия и неясности в законодательстве, возникающие во взаимоотношениях человека с государственными органами, толкуются в пользу человека.

**Статья 20
Конституции Республики
Узбекистан.**

■ Самаркандская область

ДЕТСКИЕ ШАЛОСТИ С СЕРЬЕЗНЫМИ ПОСЛЕДСТВИЯМИ

Железнодорожный транспорт является стратегически важной частью инфраструктуры страны. Однако стальные магистрали нередко привлекают внимание подростков, ищущих острых ощущений. Безобидные на первый взгляд забавы порой перерастают в акты вандализма, создающие угрозу безопасности движения поездов и жизни людей.

К числу наиболее распространенных правонарушений относятся размещение посторонних предметов на рельсах и забрасывание вагонов камнями. Подобные действия фиксируются уже не первое десятилетие и представляют серьезную опасность для пассажиров, работников железнодорожной сферы и бесперебойной работы инфраструктуры.

Размещение инородных предметов на рельсах может привести к сходу вагонов, особенно на участках с высокой скоростью движения. Последствия таких действий – повреждение подвижного состава, элементов железнодорожной инфраструктуры, получения травм пасса-

жирами и членами поездных бригад, а в отдельных случаях и гибель людей.

С начала года зафиксированы шесть случаев бросания камней в вагоны. Один из последних произошел на участке «Мараканд–Джума», где четверо несовершеннолетних бросили камни в окна пассажирского поезда, следовавшего по маршруту «Ташкент–Кунград». Выяснилось, что все они являются жителями махалли Токбой Пастдаргомского района. Родители подростков привлечены к административной ответственности.

Важно понимать: подобные действия – это не просто шалость, а деяние, за которое предусмотрена ответствен-



ность. Повреждение железнодорожного полотна и подвижного состава влечет серьезные санкции.

Предотвращение таких правонарушений требует комплексного подхода: усиления патрулирования железнодорожных путей, установки камер видеонаблюдения, проведения профилактической работы с подростками и их родителями, повышения гражданской ответственности за сохранность объектов железно-

дорожной инфраструктуры. Только совместными усилиями можно обеспечить безопасность движения поездов и предотвратить трагические последствия детской беспечности.

**Ахрор РАСУЛОВ,
лейтенант.**



BIZNING SUHBAT

«HAR ISHNING BOSHIDA MEHNAT
VA IZLANISH TURADI»

Yoshlar, ta'lim va kelajak. Bu uch so'zni bugungi O'zbekiston taraqqiyotining bosh g'oyasi, deyish mumkin. Shu jarayonda o'z mehnati, tashabbuskorligi va saxovati bilan elga tanilgan insonlardan biri – Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashi deputati, tadbirkor, «Shuhrat» medali va «Do'stlik» ordeni sohibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Jamshid Pardayevdir.

U bilan suhbatimizda nafaqat ta'lim tizimidagi yutuqlar, balki insoniy qadriyatlar, yoshlar kelajagiga bo'lgan e'tibor, jamiyatga foydali bo'lish masalalari haqida so'z bordi.

– **Jamshid Muzaffarovich, bugungi kunda olib borayotgan faoliyatingizni kuzatar ekanmiz, ta'lim va yoshlar sohasidagi islohotlarda o'ringiz beqiyos ekani yaqqol seziladi. Shu yo'nalishga kirib kelishingiz haqida so'zlab bersangiz.**

– Men ta'limni inson hayotidagi eng muhim ustun deb bilaman. Aynan ta'lim orqali inson o'zini, jamiyat kelajagini topadi. Shu bois bolaligidan o'qishga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilib yashadim.

fessor-o'qituvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirib qaytdi, 200 nafardan ortiq talabalar esa qo'shma dasturlar asosida ta'lim oldi. Bu ularning dunyoqarashini kengaytirish, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishda katta imkoniyat yaratdi.

– **Umumta'lim maktablarini qo'llab-quvvatlash borasida ham katta tashabbuslaringiz bor. Shu haqida ham to'xtalsangiz.**

– Yuqorida ta'kidlaganimdek, Oltinsoy tumanidagi 48-umum-

Vaqt o'tib, ishbilarmonlik sohasidagi qonun-qoidalarni puxta o'rganib, ishonchli jamoa tuzdim. Hozirgi kunda sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish va ta'lim sohalarini qamrab olgan o'nlab biznes loyihalarimiz ishlab turibdi. Biroq, men har doim aytaman: biznesning eng katta yutug'i moddiy foyda emas, balki odamlarga foydali bo'lishdir.

– **Hayotdagi shioringiz nima?**

– Hayotiy qoidam juda sodda: «Hech qachon to'xtab qolma, odamlarga yaxshilik qil va mehnatni qadrla!» Bugun men yaratgan har bir korxona, universitet yoki ijtimoiy loyiha ortida bir g'oya – inson manfaati yotadi. Moddiy yutuqlar vaqtinchalik, lekin inson qalbida qolgan iz doimiydir. Shu bois har bir ishimda inson qadri, mehnatga hurmat va adolat asosiy tamoyillar hisoblanadi.

– **Korxonalaringsizda yuzlab odamlar mehnat qilmoqda. Mehnat jamoasidagi muhit va boshqaruv uslubingiz haqida nima deysiz?**

– Men o'zimni rahbar emas, jamoamning bir a'zosi, deb hisoblayman. Har kuni ishni boshlar ekanman, birinchi navbatda insonlarning kayfiyati va ruhiyatini o'ylayman. Chunki mehnat muhiti sog'lom bo'lmasa, natija bo'lmaydi.

Bugun faoliyat yuritayotgan korxonalarimizda 1000 nafardan ortiq fuqarolar doimiy ish bilan ta'minlangan. Ular ichida yoshlar ham, xotin-qizlar ham bor. Har biriga ishonch va imkoniyat bersak, ular



o'z hayotini, hatto jamiyatni o'zgartirishga qodir.

– **Har bir inson hayotda qandaydir sinovlar, qiyinchiliklar orqali yuksaladi. Siz uchun eng katta sinovlar nimalar bo'lgan?**

– To'g'risi, har bir qadam – sinov. Bir paytlar bitta g'oyani amalga oshirish uchun oylab harakat qilgan paytlarim bo'lgan. Imkon yo'q, deyishgan. Men esa «agar niyat sof bo'lsa, yo'l topiladi» degan fikrda sobit qolganman. Qiyinchilik insonni sinovdan o'tkazadi, lekin ruhani sindirmasligi kerak. Sabr va ishonch menga doim yordam bergan.

Bugungi yutuqlarim – kecha kechasi uyqusiz o'tgan, ertalab umid bilan boshlangan kunlarning natijasidir.

– **Hayotdagi ustuvor qadriyatlaringsiz...**

– Eng avvalo, oila. Men uchun barcha muvaffaqiyatlarimning zamirida oilamning qo'llab-quvvatlashi turadi. Shuningdek, insonga ishonch va so'zda turish – eng katta qadriyatim. Har kuni o'ylayman: agar mening ishimdan bir odam rozi bo'lsa, demak, to'g'ri yo'ldaman. Shu tuyg'u menga kuch beradi. Inson bo'lib yashash – bu unvon yoki lavozim emas, balki qalb pokligi va niyat sofligidir.

– **Mazmunli suhbat uchun tashakkur!**

**O'z muxbirimiz
Feruza RAHMONQULOVA
suhbatlashdi.**



Suratda: Senat raisi T. Norboyeva bilan.

Oltinsoy tumanidagi 48-umumta'lim maktabini tamomlagach, 2011-yili Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutini, 2013-yili esa Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining menejment-marketing yo'nalishini tamomladim. Keyinchalik ilmiy faoliyatimni davom ettirib, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini himoya qildim.

– **Sizning tashabbusingiz bilan 2022-yilda tashkil etilgan Termiz iqtisodiyot va servis universiteti hozirgi kunda viloyatdagi yoshlar kelajagining poydevori sifatida ham e'tirof etilmoqda. Bu yo'lda qanday tamoyillarga amal qilasiz?**

– Universitetda tahsil olayotgan 27 ming nafardan ortiq talabaning har biri uchun teng imkoniyat yaratish – bizning asosiy maqsadimiz. Shu niyatda dastlab xorijiy tajribalarini chuqur o'rganib, dasturlarimizni zamonaviy ta'lim tizimi talablariga moslashtirdik. Shu bilan birga, yoshlar o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun stipendiya dasturlarini joriy qildik.


Hozir 150 nafar iqtidorli talabamiz maxsus stipendiyadan foydalanmoqda. Qolaversa, 50 nafar pro-

ta'lim maktabida ilk saboqlarimni olganman. Bugun o'sha maskanga minnatdorlik sifatida zamonaviy 1260 o'rinli, talab darajasida jihozlangan yangi bino qurib berdim. Bundan tashqari, maktab o'quvchilarining bilimni oshirish maqsadida oxirgi uch yilda fan olimpiadalariga 15 milliard so'm mablag' yo'naltirdik.

Shuningdek, 975 nafar maktab direktori uchun universitetimiz bazasida o'quv-seminarlar tashkil etganmiz. Oltinsoy tumanidagi 10 ta maktabga malakali professor-o'qituvchilar birlashtirilgan – ular muntazam tarzda metodik yordam ko'rsatib kelmoqda.

– **Ilk tadbirkorlik faoliyatingiz qanday boshlangan?**

– Mening hayotimdagi har bir ishning boshida mehnat va izlanish turadi. Ilk qadamlarimni juda kichik loyihalardan boshlaganman – o'sha paytlarda katta g'oyalarim bor edi, ammo imkoniyatlarim cheklangandi. Shuning uchun, avvalo, bilimimni oshirish va tajriba to'plashni maqsad qildim.



SOHA FIDOYILARI

HUSHYORLIGI QO'L KELDI



El-yurt osoyishtaligi va tinchligi ortida halol xizmat qilayotgan, burchini vijdonan bajarayotgan jonkuyar, o'z kasbining fidoyilaridan biri Surxondaryo viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi 1-guruh kichik inspektor-kinologi, safdor Jahongir Abdunazarovdir.

Lavhamiz qahramoni 2017-yildan beri tizimda sidqidildan xizmat qilib kelmoqda. U dastlab viloyat IIB Patrul-post xizmatida faoliyat boshlab, keyinchalik voyaga yetmaganlar bilan ishlash markazida navbatchi xodim sifatida ishladi. Jonivorlarga bo'lgan mehri va qiziqishi uni 2022-yilda kinologiya xizmati sari yetakladi.

– Bolaligimdan hayvonlarga mehrim bo'lakcha edi, – deydi Jahongir Abdunazarov. – Shu bois menga birlashtirilgan xizmat iti – «Ris» bilan tez til topishdim. U asosan iz qidiruv hamda giyohvandlik moddalarini topish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan. Odamlar tinchligi va osoyishtaligi uchun «Ris» bilan xizmatda bo'lish, birga harakat qilish – bu nafaqat burch, balki faxrdir.

Jahongirning asosiy fazilatlar – tirishqoqlik va mas'uliyat. U xizmat vazifasini astoydil bajaradi, ishni oxiriga yetkazmasdan qo'ymaydi.

Joriy yil bahorida «Darband» YPX maskanida xizmat o'tash jarayonida uning hushyorligi yana bir bor o'z samarasini berdi. «Denov – Toshkent» yo'nalishi bo'ylab harakatlanayotgan «Cobalt» rusumli

avtomashina to'xtatilib, tekshirilganda salonidagi yo'lovchilardan biri sarosimada harakat qila boshlagani Jahongirning diqqatini tortdi. U tajribali kinolog sifatida vaziyatni tez baholadi va darhol «Ris» bilan birga yo'lovchilarning sumkalarini tekshirishga kirishdi.

Tekshiruv natijasida yo'lovchining sumkasidan 10 dona gugurt qutisiga yashirilgan 60 gramm gashish giyohvandlik moddasi aniqlandi. Ashyoviy dalillar hujjatlashtirilib, holat bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atildi.

Safdor Jahongir Abdunazarov inson sifatida ham ko'pchilikning hurmatini qozongan – u hamkasblariga mehribon, yosh xodimlarga g'amxo'r ustoz, aholi bilan muloqotda ochiq va odobli. Har kuni xizmatga chiqarkan, bitta niyat bilan harakat qiladi: «Bir jinoyatning oldini olish – yuz insonni halokatdan saqlash demakdir». Zero, el tinchligi ana shunday fidoyi xodimlarning burchiga sadoqati bilan ta'minlanadi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

TABASSUM QILING VA ORZULARINGIZGA YETING

Chehramizdagi tabassum nafaqat ichki dunyomizning ifodasi, balki inson hayotining ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy jihatlariga ta'sir ko'rsatadigan kuchli aloqa vositasi hamdir. U madaniy va muloqot to'siqlaridan qat'i nazar, tushunarli bo'lgan universal tildir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabassum qiladigan odamlar ijtimoiy aloqalar uchun yanada jozibali va qulay bo'lishadi. Bundan tashqari, tabassum darhol aloqa o'rnatishga, masofani qisqartirishga va suhbatdoshlar o'rtasida dastlabki ishonch ko'priklarini qurishga yordam beradi. Bu so'zdan ko'ra ko'proq gapiradigan so'zsiz muloqotning asosidir.

Tabassum qilish nafaqat boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarimizni yaxshilaydi, balki o'z tanamizga faol ta'sir qiladi. Tabassum «baxt gormoni» – endorfinni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, bu esa stressni kamaytiradi va kayfiyatni yaxshilaydi. Shuning uchun tabassum hayotning qiyin paytlarida o'zini o'zi tartibga solish va o'zini qo'lga olishning samarali usuliga aylanadi.

Professional muhitda birinchi taassurot kelgusidagi munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Birinchi



uchrashuvda tabassum qilish hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin. Salomlashish yoki ishbilarmonlik masalalarini muhokama qilish paytida tabassum qiladigan odamlar ishonchli, mas'uliyatli va muvaffaqiyatli, deb qabul qilinadi.

Sezgi psixologiyasiga ko'ra, tabassum qiladigan

odamlar ko'proq do'stona va jozibali hisoblanadi. Tabassum ochiqlik va hamkorlikka tayyorlik taassurotini uyg'otadi. Bu shaxsiy va kasbiy aloqalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Insonning jismoniy salomatligi uning hissiy holati bilan bevosita bog'liq. Ta-

bassum bilan biz nafaqat ijobiy his-tuyg'ularni tarqatamiz, balki muhim fiziologik jarayonlarni faollashtiramiz. Masalan, tabassum qilish kortizol stress gormoni darajasini pasaytirishga yordam beradi, bu yurak-qon tomir tizimi va qon bosimi darajasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Ko'plab shifokorlarning kuzatuvlari tabassumning kasallikdan tuzalishda alohida o'rni borligini tasdiqladi. Tibbiy tadqiqotlarga ko'ra, tabassum organizmning infeksiyalarga chidamliligini oshirish orqali immunitetni ham rag'batlantirishi mumkin. Ya'ni, muntazam tabassum qilish bizni nafaqat baxtli balki sog'lom qiladi.

Olimlarning fikricha, ko'pincha tabassum qiladigan odam yoshidan yoshroq ko'rinadi. Tabassum nafaqat psixologik, balki jismoniy salomatlikka ham ijobiy ta'sir qiladi.

AQSHda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, tabassum qiladigan odamlar 80 yoshga to'lishlari ehtimoli ko'proq. Aytgancha, yaponlar hech qachon bir-biriga qovoq uymas ekan, bir-birini xo'mrayib kutib olmas ekan. Aksincha, bir-biriga yoqimli va samimiy tabassum ulashar ekan. Balki ularning uzoq umr ko'rishining bitta sababi tabassum bo'lsa, ne ajab!

Yana bir bor tabassum qiling, qadrdonim!

G'ayratulla SHUKUROV.

www.postda.uzt.me/postdarasmiywww.instagram.com/postda_uz

★ Фотоинформация

ПЕРВЫЕ ПОМОЩНИЦЫ

Медсестры играют ключевую роль в системе здравоохранения, являясь центральным звеном в уходе за пациентами и выполнении врачебных назначений. Они обеспечивают непрерывность лечения, оказывают помощь врачам, оказывают поддержку пациентам. Поэтому медсестер называют первыми помощницами. Благодаря их труду больницы и поликлиники функционируют эффективно и бесперебойно, пациенты быстрее выздоравливают.

Медсестры отделения терапии стоматологической поликлиники МВД Феруза Абдуманова и Шахло Ачилова пример верности профессии. Опытные медсестры обрели заслуженное уважение коллектива и пациентов.

Абу КЕНЖАЕВ,
фотокорреспондент.



★ Нет коррупции!

ПРОДЕЛКИ «БАРОНА» И «БАРОНЕССЫ»

Инспектор профилактики махалли Бустон группы профилактики правонарушений ОВД № 2 ОВД города Гулистана старший лейтенант Сарвар Шодиев отвечает за правопорядок и общественную безопасность махалли. Только в текущем году он вновь подтвердил верность принесенной присяге. Недавно двое граждан попытались подкупить его деньгами.

ворившись со своим знакомым Х. Б., 1997 года рождения, он арендовал квартиру рядом с дехканским рынком Гулистана. Именно эта квартира и превратилась в место, куда круглосуточно приходили и уходили посторонние.

Сам «Барон» занимался посредничеством за денежное вознаграждение и делил прибыль с 28-летней женщиной. В результате по ночам там происходили шумные гулянки...

Около шести часов вечера 15 октября старший лейтенант Шодиев вновь выявил подобный факт. Сначала нарушители отрицали свою причастность, однако им были предъявлены записи видеонаблюдения. Благодаря показаниям участников оперативного мероприятия и другим собранным доказательствам лица, занимавшиеся сутенерством и проституцией, вынуждены были

признать вину. По данному факту оформлены соответствующие материалы.

В тот же день, когда инспектор возвращался со службы, указанные граждане подошли к нему с предложением. Они попытались передать ему 400 долларов США, чтобы «замять» дело. Старший лейтенант С. Шодиев решительно отказался.

На следующий день была новая попытка оказать давление. Тогда старший лейтенант Шодиев сообщил о попытке подкупа руководству. В ходе оперативного мероприятия один из них был задержан с поличным при передаче инспектору 200 долларов США.

Старший лейтенант Сарвар Шодиев родился в 1997 году в Баяутском районе. В 2020–2023 годах обучался в Академии МВД. Является примерным семьянином, вместе с супругой воспитывает ребенка.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.

★ Из следственной практики

ОСТАЛАСЬ БЕЗ «ДОХОДА»

Говорят, что в жизни нет некрасивых девушек, бывают лишь те, чьи поступки и образ жизни подавляют их красоту.

Порой слышишь: «У той-то вроде бы прекрасная семья, а ведет себя странно», «Посмотрите на эту девушку – сегодня с одним за руку ходит, завтра с другим, да еще и на дорогих машинах разъезжает», «А женщина, что живет в том доме, якобы открыла притон. Молодые парни и девушки, привыкшие к легкой жизни, собираются там до самого утра, устраивая шумные вечеринки».

Как говорится, нет дыма без огня. Хотя такие слухи неприятно слышать, в них, к сожалению, часто есть доля правды.

Главная героиня этой истории – Дурдона (имена изменены) – молодая незамужняя девушка. Ей всего двадцать три года, но она уже дважды оказывалась на скамье подсудимых.



В 2024 году суд признал ее виновной по ст.ст. 131 и 135 Уголовного кодекса и приговорил к более чем четырем годам ограничения свободы. Однако выводов она не сделала, вскоре вновь пойдя на преступление.

Дурдона познакомилась с Хуршидой, которой не было даже восемнадцати лет. Узнав о семейных обстоятельствах, нужде в деньгах и беззащитном положении, решила воспользоваться этим в корыстных целях. Однако реализовать замысел ей не удалось. В ходе оперативного мероприятия, проведенного сотрудниками УВД области, ее действия были разоблачены и подтверждены вещественными доказательствами.

Следователь следственного отдела УКД ОВД города Бухары майор Лутфулло Жураев всесторонне изучил данное дело. Уголовное дело направлено в суд, где вынесут справедливый приговор.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.

Во время исполнения служебных обязанностей старший лейтенант Шодиев установил, что в одном из домов махалли Янги авлод Баяутского района, примыкающего к городу Гулистан, организован притон. По данному факту была получена оперативная информация. Предварительно установлено, что молодой человек Т. А., 2002 года рождения, выбрал незаконный способ заработка. Дого-



VOHANING TINCH GO'SHASI



Xonqa tumanining umumiy yer maydoni 0,43 ming kvadrat kilometr. Aholisi 203 ming nafardan ziyod. 1920-yilda tashkil etilgan tuman Urganch, Xiva, Yangiariq, Bog'ot va Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanlari bilan chegaradosh.

Tuman IIB xodimlari hududda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida astoydil xizmat qilmoqdalar.

Ayni paytda tumandagi 41 ta mahallada 43 nafar profilaktika inspektori faoliyat olib bormoqda. Ularning mahalla fuqarolar yig'inlari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda olib borayotgan ishlari natijasida joriy yilning dastlabki 10 oyi davomida 102 ta jinoyat fosh qilindi, turli huquqbuzarliklar sodir etgan 8181 nafar fuqaro, shu jumladan, ov qurollarini saqlash qoidalarini buzgan 141 nafar kishi ma'muriy jazoga tortildi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi, sotilishi va saqlanishiga qarshi kurash bo'yicha ham yaxshi natijalar qo'lga kiritildi. Joriy yilning shu kunigacha og'ufurushlardan 200 gramdan ortiq giyohvand moddalar tortib olindi, 16 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Tuman markazida jamoat tartibini ta'minlash maqsadida viloyat IIB JXX JTSB batalyoni bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. PPX xodimlari va jamoatchilik vakillari bilan birga har kuni patrul-post xizmati tashkil etilmoqda. Kafelar, tungi klublar, kompyuterxonalar va boshqa ko'ngilochar joylar faoliyati ustidan nazorat o'rnatilgan. Bu muassasalarda voyaga yetmagan bolalarning kattalar nazoratisiz bo'lishiga chek qo'yilmoqda.

Albatta, o'tkazilayotgan bu tadbirlar natijasida tungi soatlarda sodir etilayotgan jinoyatlar sonining ancha kamayishiga erishildi.



M va FRB xodimlari profilaktika inspektorlari, PPX xizmati va boshqa sohaviy xizmatlar vakillari bilan hamkorlikda tuman hududida pasport qoidalariga amal qilinishi ustidan doimiy nazorat olib borishmoqda. O'tgan o'n oy davomida bu borada 16 ta tekshirish o'tkazildi. Tekshirishlar davomida pasportni garovga berish yoki e'tiborsizlik oqibatida yaroqsiz holga keltirish, ro'yxatdan o'tmasdan yashash kabi qoidabuzishlar aniqlandi va ayborlarga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi pasportini ilk bor 16 yoshga to'lgan 1145 nafar yigit-qiz oldi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Tumanning qoq o'rtasidan 50 kilometr uzunlikdagi respublika ahamiyatiga molik avtomobil yo'li kesib o'tadi. Bu yo'lda kecha-yu kunduz harakat tinmaydi. Shuningdek, viloyat ahamiyatidagi 150 kilometr va 626 kilometr cho'zilgan mahalliy yo'llarda ham harakat doim tig'iz. Bu yo'llarda viloyat IIB JXX YHXB YPX batalyoni 2-guruhi xizmat olib boradi.

Guruh inspektorlari tuman IIBning boshqa sohaviy xizmat xodimlari bilan hamkorlikda harakat qilishmoqda.

Joriy yilning o'tgan davrida yo'llarda 9968 ta qoidabuzarlik aniqlanib, tegishli choralar ko'rildi. Jumladan, transport vositasini mast holda boshqargan 62 nafar haydovchi ushlandi, belgilangan harakat tezligini oshirgan 3745 nafar haydovchi jarimaga tortildi.

Ayni paytda tuman miqyosida harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida profilaktik-targ'ibot ishlari kuchaytirilgan. Ayniqsa, yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi transport vositalari haydovchilari o'rtasida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarning muntazamligi va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



KO'RIK-TANLOV

PSIXOLOGLAR FARG'ONADA

Bugungi rivojlangan jamiyatda psixologiya xizmati kirib bormagan soha va tarmoq deyarli qolmadi. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi va uning tarkibiy tuzilmalarida ham psixologik ta'minlash xizmatlari tashkil etilgan bo'lib, uning yutuqlaridan kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, shaxsiy tarkib o'rtasida sog'lom ruhiy muhitni yaratish, ayniqsa, tezkor xizmat va tergov organlari faoliyatida shaxsning psixologik portretini shakllantirishda samarali foydalanilmoqda.

E'tiborlisi shundaki, ichki ishlar organlarida xizmat olib borayotgan psixologlarning kasbiy mahoratini yanada oshirish, xodimlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish va samimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, iqtidorli xodimlarni munosib rag'batlantirish maqsadida an'anaviy tarzda «Eng yaxshi psixolog» ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinyapti.

Farg'ona viloyatida mazkur ko'rik-tanlovning respublika bosqichi hamda «Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda psixologik ta'minlash faoliyati: muammo va yechimlar» mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

22-noyabr – Xalqaro psixologlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan ko'rik-tanlovda viloyat bosqichlarida g'oliblikka erishgan 17 nafar mutaxassis qatnashdi. Ko'rik-tanlov nizomi talablaridan kelib chiqib, ishtirokchilarning psixologiya sohasiga oid bilimlari va kasbiy mahorati to'rt shart asosida sinovdan o'tkazildi. Har bir ishtirokchi o'zining ilmiy izlanishlari, tashabbuslari va soha faoliyatiga oid takliflarini bildirishga harakat qildi.

– Tanlovning bu yilgi ishtirokchilari orasida juda zukko va intiluvchan yoshlarni ko'rdim, – deydi hakamlar hay'ati a'zosi, IIV Akademiyasi kafedra boshlig'i, podpolkovnik Baxtiyor Sirliyev. – Ishtirokchilar tayyorlagan materiallar va slaydlarda amaliyotda uchrayotgan dolzarb muammolar,



ularga yechim sifatidagi takliflar tilga olindi, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha fikr-mulohazalar, uslubiy tavsiyalarga guvoh bo'ldik. Nufuzli



oliy o'quv yurtlarining tajribali psixolog olimlari ishtirokida bo'lib o'tgan konferensiya esa ishtirokchilarning bilim va salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

Adolatli va xolis tarzda o'tkazilgan tanlov yakunlariga ko'ra, Toshkent shahar IIBB Yakkasaroy tumani IIOFMB psixologik ta'minlash guruhi katta psixologi, kapitan Sayyora Kodirova faxrli birinchi o'rinni egallab, I darajali diplom, esdalik sovg'asi hamda 30 million so'm miqdoridagi sertifikatga ega bo'ldi.

Namangan viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati, psixologik ta'minlash guruhi katta psixologi, **kapitan Murodjon Bahridinov ikkinchi o'rin** va 20 million so'm, IIV Surxondaryo akademik litseyi psixologi **Halima Bekmuratova esa uchinchi o'rin** va 15 million so'm miqdoridagi sertifikatni qo'lga kiritdi.

«Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda psixologik ta'minlash faoliyati: muammo va yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida vazirlik rahbariyati, IIV Akademiyasi professor-o'qituvchilari bilan birga, Farg'ona davlat universiteti, Namangan va Andijon davlat pedagogika institutlarida faoliyat ko'rsatuvchi psixolog olimlar, eng tajribali amaliyotchi psixologlar o'zlarining dolzarb muvzudagi mazzurazalari bilan qatnashishdi.

Soha xodimlari o'zlarini qiziktirgan psixologiyaga oid savollarga mutaxassislardan batafsil javob olishdi. Amaliyotda uchrayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

Konferensiyadan so'ng ishtirokchilar Qo'qon shahri va Rishton tumanidagi turizm hamda hunarmandchilik markazlariga sayohat qilishdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

TADBIR

OILAVIY TOTUVLIK AHAMIYATI

Yunusobod tumanida 25-noyabr – Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish xalqaro kuni munosabati bilan «Biz zo'rvonlikka qarshimiz!» shiori ostida o'tgan targ'ibot tadbirida Toshkent shahar IIBB HPB hamda tuman IIOFMB rahbariyati, xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar, turli soha vakillari, talabalar va o'quvchi qizlar ishtirok etdi.

Tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – ayollar xavfsizligini ta'minlash, oilalardagi totuvlikni mustahkamlash, har qanday zo'rvonlikka toqat

qilinmasligi haqidagi g'oyalarni yanada keng targ'ib qilishdan iborat.

Dastlab sahna ko'rinishlari orqali zo'rvonlikning oqibatlari, oiladagi totuvlik va mehr-oqibatning ahamiyati ko'rsatib berildi. Shundan keyin mavzuga oid maxsus videorolik namoyish etildi.

– Zo'rvonlik – faqat bir oilaning emas, butun jamiyatning muammosidir, – deydi Yunusobod tumani IIOFMB HPB XQMB katta inspektori, kapitan Hilola Sotvoldiyeva. – Tumanda bu borada tizimli ishlar olib borilyapti. Mahallalar, ta'lim muassasalari, tibbiyot xodimlari va huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida doimiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Eng asosiysi – har bir murojaat o'ziga xos tartibda tezkor ko'rib chiqiladi va

ayollarga huquqiy, ruhiy va amaliy yordam beriladi. Tibbiyot xodimlari ishtirokchilarga ayollar salomatligi, ruhiy holat va xavfsizlik borasida foydali maslahatlar berishdi.

Sog'lomlashtirish markazi mutaxassislari esa amaliy mashg'ulotlar o'tkazishdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



KASB FIDOYILARI

OSOYISHTA YURTGA MEHMON KELADI

Samarqand, Buxoro va Xiva Sharqda «oltin uchlik» sifatida mashhur bo'lib, dunyo bo'ylab sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Turizm jozibadorligi faqatgina tarixiy obidalar, mehmonxona va tarjimonlar degani emas. Mehmonning unutilmas taassuroti, uning xotirjamligida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Sayyoh o'zini erkin, bexavotir his qilsa, borgan, ko'rgan joylar haqidagi tasavvuri ham ijobiy bo'ladi.

Samarqand viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi bo'limi boshlig'i, mayor Daler Abdulloyev ana shunday sharaflari va zifaga mas'ul rahbarlardan biri. U xizmat faoliyatini 2011-yilda Samarqand viloyati IIB Aloqa bo'limi radio va radiotexnika nazorati, radioelektron vositalarini elektromagnit moslanishi va radioaloqalar guruhi muhandisi lavozimidan boshlagan. Xizmat davrida bilimi, tashabbuskorligi va intizomi bilan ham e'tiborga tushgan.

– Xavfsiz turizm masalasida asosiy e'tibor ichki va tashqi mehmonlar uchun barqaror muhit yaratishda,



– deydi mayor D. Abdulloyev. – Biz uchun har bir sayyoh mehmon. Shu bois, nafaqat huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda profilaktik ishlarni kuchaytirishimiz, balki ular xavfsizligini ta'minlash orqali xorijiy va mahalliy mehmonlarda ishonch uyg'otishimiz kerak. Shunda sayyohlar oqimi yanada ko'payadi.

Mayor Daler Abdulloyevda nazeriya va amaliyot, ko'p yillik xizmati sabab axborot texnologiyalaridan

samarali foydalanish bo'yicha sohaviy tajriba katta. Muhimi u rahbarlikni mansab deb emas, odamlarga xizmat qilish imkoniyati deb biladi. Bu borada yoshlarga ham o'rnak. Jamoasi bilan maslahatlashib ish ko'radi. Har bir xodimning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi, huquqiy va ijtimoiy masalalarda himoya qiladi.

Lavhamiz qahramonini bu sohaga qiziqtirgan, ilhom bergan

insonlar – oilasi, ustozlari. Otasi Amrillo akaning «Bolam, ilmdan uzoqlashma, ilm egasi yo'lini topadi. Halollikdan yuz o'girma. Halol odamning uyquasi tinch, rizqi barakali bo'ladi», – degan so'zlarini oltin qoidaga aylantirgan.

– Mayor Daler Abdulloyev o'z ishini yaxshi ko'radi. U jamoasini hech qachon yolg'iz qoldirmaydi, ko'pchilik bilan hamfikir, yelkadosh bo'lib ishlaydi. U shu darajaga o'z mehnati bilan yetishdi. Ustozi sifatida faxrlanaman, – deydi viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Abdunabi To'rayev.

Mayor D. Abdulloyev rafiqasi Shirin bilan ikki o'g'il, bir qizni o'stirib ulg'aytirishmoqda. Oilada ham farzandlari tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, ularning ta'lim-tarbiyasini nazorat qilib boradi.

Bugun dunyoda sayyoh borki, eng avvalo tinch va xavfsiz joyni izlaydi. Bunday xavfsiz muhitni yaratishda mayor D. Abdulloyev kabi tajribali, o'z ishiga mas'uliyatli rahbarlarning ham hisssasi ulug'. Chunki, osoyishta yurtga, tinchlik hukm surgan uygagina mehmon keladi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

DALILLAR BILAN
«TILLASHIB»

Jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda mayda detallarni ham sinchkovlik bilan o'rganish juda muhimdir. Bu esa ko'p jihatdan ekspert-kriminalistika xizmati xodimining mahorati va tajribasiga bog'liq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxiotosh tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, kapitan Jasurbek Jiyenbayev yosh bo'lishiga qaramasdan qator jinoyatlarni ochishga munosib hissa qo'shib kelyapti.



Tuman IIB Navbatchilik qismiga «Keneges» ovul fuqarolar yig'ini hududida joylashgan do'konlardan birida o'g'rilik jinoyati sodir etilgani haqida xabar tushdi. Ma'lum bo'lishicha, o'g'ri do'kon derazasini sindirib, ichkariga kirgan va savdodan tushgan 10 million so'mdan ortiq pullarni olib juftakni rostlagan edi. Shu bois ekspert ichkarida sochilib yotgan oyna siniqlarini birma-bir ko'zdan kechirib, barmoq izlarini izlashga tushdi. Bir nechta barmoq izlari «Sonda» ADTT bazasi orqali tekshirib ko'rilganda, tuman-da istiqomat qiladigan shaxsga tegishli ekanligi aniqlandi. Gumon

qilinuvchi tez orada qo'lga olindi. Tumanning «Jayxun» ovul fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaroning «Damas» rusumli avtomashinasidan pul va buyumlar o'g'irlangani holati bo'yicha qidiruv ishlari olib borilayotgandi. Lavhamiz qahramoni avtomashina ichini ko'zdan kechirayotib, uning pol qismida yotgan g'ijimlangan oddiy to'lov chekiga e'tiborini qaratadi. U adashmagan ekan, ushbu qo'g'ozdan topilgan barmoq izi namunalar o'g'rini topishda asosiy dalil bo'lib chiqdi. Gumon qilinuvchi qo'lga olingach, dastlabki tergov harakatlari davomida uning yana

5 ta o'g'rilik jinoyatiga aloqador ekanligi aniqlandi.

– Kapitan Jasurbek Jiyenbayev yosh bo'lishiga qaramay o'ziga talabchan, sinchkov, xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashadi. Joriy yilning o'tgan davrida 90 martadan ortiq hodisa joyiga chiqib, ashyoviy dalillarni to'plashga erishdi. Daktiloskopik, trasologik, ballistik, xatshunoslik, hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi, portret va sovuq qurollar tadqiqoti bo'yicha 131 ta xulosa berdi. Undan umidimiz katta, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika

markazi boshlig'i, podpolkovnik Mubarek Nizamatdinov.

Jasurbek, shuningdek, boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan hamkorlikda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, sodir qilingan jinoyatlarni fosh etish, tergov va tezkor qidiruv yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda faol qatnashib keladi. Har qanday sohaning rivoji ana shunday malakali mutaxassislariga bog'liq.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

ДЕТСКИЙ УГОЛОК

ЧТО НИ ДЕЛАЕТСЯ –
ВСЕ К ЛУЧШЕМУ

Однажды человек попал в кораблекрушение и был выброшен волной на необитаемый остров. Каждый день он всматривался в горизонт в надежде, что увидит плывущее на помощь судно.

Вымотавшись окончательно, человек решил построить себе дом из досок, которые выбросило на берег после кораблекрушения. Но однажды, вернувшись на берег после поисков пищи, он увидел, что его дом обвят




пламенем: дым столбом поднимался к небу.

Самое ужасное, что вместе с домом сгорели все оставшиеся вещи. Но на следующее утро он был разбужен гудком корабля,

который плыл к острову, чтобы спасти его.

– Как вы узнали, что я здесь? – спросил человек матросов.

– Мы увидели дымовой сигнал, – ответили они.



Плод этот сладкий
И круглый, и гладкий.
Внутри он душистый
Снаружи пушистый.

(жисрц)

Две сестрицы друг за другом
Пробегают круг за кругом:
Коротышка – только раз,
Та, что выше – каждый час.

(ворав ижрвс)

Я под мышкой посижу
И что делать укажу:
Или разрешу гулять,
Или уложу в кровать.

(днотлрв)

Интересные факты о зонтике

Кто именно придумал зонтик, к сожалению, не известно. Известно только, что еще в XI веке до нашей эры зонтик стали использовать китайцы. Изначально он использовался для защиты от солнца, а не от дождя, как применяется сейчас.

В Древнем Египте и Вавилоне зонтик являлся символом власти и его могли использовать только члены королевской семьи.



Первыми, кто использовал зонтик для защиты от дождя, были римляне.

В XVIII в. зонтик использовался для защиты от дождя почти по всей Европе.

С тех времен внешне зонтики почти не изменились, лишь стали немного легче.



НАЙДИТЕ 10 ОТЛИЧИЙ



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(1 – 7 декабрь)



Қўй (21.03 – 20.04). Бу ҳафта сиз учун жуда самарали бўлади. Иш жойингизда кўпгина муваффақиятларга эришиш учун яхши имкониятдир. Айти шу дамда ҳатто энг мураккаб вазифаларни ҳам ҳеч иккиланмай амалга ошириш тавсия этилади.



Бузоқ (21.04 – 20.05). Ҳафта бошида атрофдагилар билан хушмуомала бўлишга, улар билан зинҳор баҳслашмасликка ҳаракат қилинг. Сешанба ва чоршанбани янги ишларни режалаштириш, ташаббусларни амалга ошириш учун сарфланг.



Эгизаклар (21.05 – 21.06). Бу ҳафта жисмоний фаолликни камайтириш ва осойишталикка ҳалақит қиладиган ҳамма нарсадан узоқлашиш тавсия этилади. Одатий турмуш тарзидаги энг кичик бурилишлар ва ўзгаришлар ҳам сизнинг кайфиятингизга салбий таъсир кўрсатиши мумкин.



Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Ушбу ҳафтада ҳеч нарсани режалаштирманг, чунки режалар сизга боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра ўзгариши эҳтимоли бор. Душанба ва сешанба кунлари хушёр бўлинг. Негаки бу вақтда касбий соҳангизга оид қийинчиликлар юзага келиши ва пул йўқотишлар кузатилиши мумкин.



Арслон (23.07 – 23.08). Ҳафта давомида ваколатингизга кирмаган масалаларда ташаббус кўрсатишдан воз кечинг. Бу тавсияга иш фаолиятида ҳам, шахсий ҳаётда ҳам амал қилинг. Ҳозирча оилавий муаммолар ечимини янада қулай пайтга қолдирган маъқул. Маблағ сарфлашда эҳтиёткор бўлинг, уларнинг баъзилари омадсиз бўлиши мумкин.



Паризод (24.08 – 23.09). Ҳафта давомида зиддиятли вазиятларнинг олдини олишга ҳаракат қилинг. Ён-атрофдагилар билан хушмуомала бўлинг. Катта иш режаларини тузишга ошиқманг, қутилмаган харидлардан ўзингизни тийинг. Бу ҳафтада пул йўқотишлар кузатилиши мумкин.



Тарози (24.09 – 23.10). Бу ҳафта сиз учун жуда самарали ва омадли келади. Иш жойингизда барча вазифаларни муваффақиятли амалга оширасиз. Молиявий масалаларда ҳам қийинчиликка дуч келмайсиз. Дам олиш кунлари табиат кўйида ҳордиқ чиқаринг.



Чаён (24.10 – 22.11). Бу ҳафта учун мушкул вазифаларни режалаштирманг, акс ҳолда баъзи сабаблар туфайли уларни ўзгартиришга ёки бекор қилишга тўғри келади. Сизни бироз нотинч ва ташвишли кунлар кутмоқда. Бу даврда иккиланиш, журъатсизлик ва шубҳа ҳар жиҳатдан сизга ҳалақит қилади.



Ўқотар (23.11 – 21.12). Ёши ва лавозими жиҳатдан юқори турувчи танишлар билан муносабат қилишда эҳтиёткор бўлиб, имкон қадар хушмуомалаликни ўрнига қўйинг. Ваколатингизга кирмаган масалаларда ташаббус билдиришдан тийилинг. Бу ҳам иш, ҳам шахсий ҳаётингизга тегишли. Бу ҳафта вақтинча четдан кузатувчи вазифасини бажаринг.



Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Бу ҳафта куч-ғайратингиз етаридан ортиқ бўлади. Лекин атрофдаги нафақат рақиблар, балки ҳамкасблар ва дўстлардан ҳам эҳтиёт бўлинг. Шу кунларда катта пул маблағи келиб тушиши мумкин, лекин уни беҳуда сарфламанг.



Қовға (21.01 – 19.02). Дастлабки уч кун бироз оғир кечади. Ўзаро тушунмовчилик ва муроасага келмаслик атрофдагилар билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Ҳафтанинг иккинчи ярми янги ғояларни рўёбга чиқариш, сармоя тикиш ва йирик харидлар қилиш учун қулайдир.



Балиқ (20.02 – 20.03). Ҳафтанинг илк кунлари ишда ютуқларга эришишни ваъда қилади, айти шу даврда ҳатто бажарилиши энг қийин бўлган вазифаларни ҳам ҳеч иккиланмай амалга ошириш тавсия этилади. Бу ҳафтада истиқболли танишувлар, оила қурганларни эса муносабатларнинг янада мустаҳкамланиши кутмоқда.



MUAMMO VA YECHIM

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, chet el investitsiyalarini jalb qilish borasida tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish, iqtisodiy va fuqarolik nizolarini hal qilishning muqobil mexanizmlarini rivojlantirish hamda subyektlar huquqlarini kafolatlash sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, mediatsiya tartib-taomili va hakamlik sudlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish hamda bu yo'nalishlarda huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Nizolarni muqobil hal etish usullari sudlarda ishlarni ko'rish tartibiga nisbatan kamroq rasmiy tartib bo'lib, ular yuzaga kelgan nizolarni hal qilishda sud tizimi yukini sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin.

Nizolarni muqobil hal etish – bu suddan tashqari yuzaga kelgan nizolarni hal qilishga qaratilgan qonun, tomonlarning kelishuvi yoki ichki lokal hujjatlarda belgilangan tartib-taomillar, usullar va mexanizmlardir. Nizolarni muqobil hal etish deganda, nizolar uchinchi shaxs



Jahon amaliyotida nizolarni hal qilishning muqobil turlari juda ko'p. Ulardan ekspert ta'rifi (xulosa), muzokaralar, mediator ishtirokidagi muzokaralar, yarashuv, arbitraj, hakam-

ularga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

«E-sud» – milliy elektron sudlov axborot tizimi O'zbekistonda sud jarayonlarini raqamlashtirish, fuqarolar uchun sudga murojaat qilish jarayonini soddalashtirish va sud faoliyatidagi samaradorlikni oshirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

«Advice.uz» – O'zbekistonda huquqiy axborot tizimini zaminlaydigan va fuqarolarga bepul onlayn huquqiy maslahat taqdim etadigan muhim platforma bo'lib, onlayn formatda va hududiy byurolar orqali huquqiy yordam imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Raqamlashtirish davrida huquqiy munosabatlarning tezkor rivojlanishi, elektron savdo, onlayn shartnomalar va xalqaro iqtisodiy aloqalarning

kengayishi nizolarni hal etishda an'anaviy usullarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan nizolarni onlayn muqobil hal etish tizimi adolatli, qulay va tezkor yechim topishning muhim vositasi sifatida shakllanmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bunday platformalar nafaqat fuqarolar va tadbirkorlar, balki davlat sud tizimi uchun ham yukni kamaytiradi. O'zbekistonda nizolarni onlayn muqobil hal qilish tizimini joriy etish hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa-da, «E-sud» tizimi, «Advice.uz» portali va onlayn mediatsiya tashabbuslari ushbu sohada rivojlanish uchun muhim zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, qonunchilik bazasini takomillashtirish, axborot xavfsizligi, huquqiy kuchga ega elektron kelishuvlar va foydalanuvchi ishonchini mustahkamlash kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, axborot xavfsizligi va ishonchlilik masalasi-ga alohida e'tibor qaratish lozim. Nizolarni onlayn muqobil hal qilish platformalarida foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari, hujjatlar va kelishuvlar himoyasini ta'minlash uchun zamonaviy kriptografik texnologiyalar, sertifikatlangan elektron imzolar va xavfsiz ma'lumot almashish protokollari joriy etilishi kerak.

Oybek MIRHOSILOV,
TDYU talabasi.



Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi.

Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 67-modda.

ishtirokida yoki uning ishtirokisiz suddan tashqari yakdil bir to'xtamga keltiriladigan tartib-taomillar tushuniladi. Ba'zi suddan tashqari kelishuv tartib-taomillari tomonlar uchun majburiy bo'lishi mumkin, boshqalari esa, aksincha, faqat nizolashayotgan taraflarning ixtiyoriy iltimosiga binoan amalga oshiriladi. Muqobil hal qilish usullarining ro'yxati hech qayerda o'rnatilmagan va hech narsa bilan chegaralanmagan. Istalgan vaqtda yangi usullar paydo bo'lishi mumkin.

lik sudi, vositachilik, mediatsiya kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida nizolarni muqobil hal qilishning hakamlik sudida ish yuritish, xalqaro tijorat arbitrajda ish yuritish, mediatsiya, muzokaralar va kelishuv bitimi turlari amal qiladi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda jamoatchilikka keng ma'lum va to'liq faoliyat yuritayotgan nizolarni onlayn muqobil hal qilish platformasi mavjud emas. Lekin boshqa tashabbuslar va huquqiy-texnik imkoniyatlar mavjud,



ИИБ Назорат-тафтиш инспекцияси раҳбарияти ва шахсий таркиби Назорат ва таҳлил гуруҳи катта тафтишчиси, майор Согдиана Исфандиёровага отаси Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, ёзувчи, ҳуқуқшунос

Исфандиёр МАТКАРИМОВнинг вафоти муносабати билан таъзия изҳор этади.

Наманган вилояти ИИБ раҳбарияти ва шахсий таркиби бошқарма ЖХХ ЙХХБ саф бўлиналари йўл-патруль хизмати батальони тўртинчи сафарбар гуруҳи ЙПХ катта инспектори, катта сержант

Ваҳобжон МЎМИНОВнинг

вафот этганлиги муносабати билан марҳумнинг оила аъзоларига ҳамдардлик билдиради.

SUYAKLAR MUSTAHKAM BO'LSIN DESANGIZ...

Suyaklarning sog'lom bo'lishi to'laqonli hayot kechirish uchun juda muhim. Ular bo'g'im va mushaklar bilan birga tanaga tayanch bo'ladi, kuch beradi va harakatlarni rag'batlantiradi. Bosh suyagi, umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasi ichki organlarni jismoniy ta'sirlardan saqlaydi. Bundan tashqari, organizm uchun fosfor va kalsiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Suyaklar orasidagi ilik esa qon yaratuvchi tizimning asosiy a'zosi hisoblanadi.

Yosh o'tgani sayin suyaklar mo'rtlashib boradi. Shuningdek, tuz yig'ilishi, D3 vitamini tanqisligi va boshqa omillar ham suyak holati yomonlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Har bir inson buning oldini olish, tayanch-harakat apparatini sog'lom saqlash harakatini qilishi kerak.

SUYAK SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Bu jarayon 25 yoshgacha davom etib, suyaklar o'sishi bilan birga kechadi. Suyak to'qimasi butun umr davomida hosil bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan bu jarayon sekinlashadi. Suyaklar sog'lom shakllanishi uchun minerallar (kalsiy, fosfor, magniy, kremniy) miqdori, vitaminlar (S, D va K) mavjudligi, kalsiy yo'qotilishiga sabab bo'ladigan moddalarning yo'qligi katta ahamiyatga ega.

Kalsiy suyak to'qimasi zichligini saqlash uchun juda muhim mineral. Ushbu mineralning yetishmasligi skelet bilan bog'liq eng ko'p tarqalgan osteoporoz kasalligi kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, buyrakda tosh paydo bo'lishi, umurtqa qiyshayishi, tromblar hosil bo'lishi va raxitga olib kelishi mumkin.



Fosfor (tuzlari) suyak massasining qariyb yarmini hosil qiluvchi gidroksiapatit tarkibiga kiradi. Fosfor suyak va qon tomirlarini mustahkamlaydi. Uning yetishmasligi oqibatida miyaning kognitiv funksiyasi yomonlashadi, ish qobiliyati susayadi, holsizlik, uyquchanlik va bosh og'rig'i holatlari kuzatiladi.

Kalsiy fosfor bolaning normal o'sishi, kattalarda esa suyak sinishlarining oldini olish uchun zarur. D vitamini, protein, magniy va kremniy yordam beradi.

Suyaklar sog'lom bo'lishi uchun tanada kalsiy miqdori yetarli darajada bo'lishi kerak. Shu bois taomnomada, asosan, baliq, kunjut, karam, yong'oq, dukkakli mahsulotlar, pishloq, tuxum, ko'katlar bo'lishiga ahamiyat qaratiladi.

SUYAKLAR HOLATIGA SALBIY TA'SIR QILUVCHI MAHSULOTLAR

- Shakarni ko'p iste'mol qilish ichak mikroflorasi muvozanatini buzib, minerallar so'rilishiga halaqit qiladi.
- Kofein minerallarning organizmdan chiqib ketishiga xizmat qiladi.

- Spirtli ichimliklar bir tomondan suv yo'qotilishiga olib kelsa, boshqa tomondan suyak to'qimasiga zararli ta'sir ko'rsatadi.

MUHI TAVSIYALAR

- taomnomaga har tomonlama foydali mahsulotlarni kiritish va zararli bo'lganlarini chiqarib tashlash;
- chekishdan voz kechish;
- harakat faolligini oshirish, bu nafaqat suyak va bo'g'imlar, balki butun organizm uchun foydalidir;
- endokrinolog qabuliga borish;
- mutaxassis tavsiyasi bilan D vitamini hamda fosfor-kalsiy almashinuviga ta'sir qiluvchi preparatlar qabul qilish.

Jiddiy holatlarda shifokor davolanish uchun tegishli muolajalar, dori-darmonlar buyuradi.

JISMONIY FAOLLIK ZARUR

Muntazam jismoniy faollik nafaqat mushaklarni o'stirishga yoki bo'g'imlar harakatchanligini yaxshilashga yordam beradi, balki suyak to'qimalarining degenerativ jarayonlarini sekinlashtiradi. Osteoporozning oldini olish uchun maxsus mashqlar kompleksi mavjud. Ulardan tashqari, eng oddiy harakatlar: zinapoyalardan ko'tarilish, piyoda yurish, cho'zilish mashqlarini bajarish, turnikda osilish, raqs, suzish, yoga mashqlari ham yaxshi samara beradi. Minerallar kamayishi alomatlari sezilganda, suyak lat yeyishi yoki sinishiga yo'l qo'ymaslik uchun mashqlarda keskin harakatlar bo'lmasligiga ahamiyat qaratish lozim.

Qobiljon HAYDAROV,
IIV Markaziy poliklinikasi
travmatolog shifokori.

HAVONING IFLOSLANISHI: inson sog'lig'iga ta'siri qanday?

Uzoq muddat iflos havo ta'sirida yashash surunkali o'pka kasalligi, nafas olishning og'irlashishi, insult, o'pka saratoni, yurak ishemik kasalligi va qandli diabet rivojlanishi xavfini oshiradi, immunitetni pasaytiradi, allergiya, bronxit, astma kabi xastaliklarni kuchaytiradi, hatto xavfli o'smalar rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

Havoning ifloslanishi, ayniqsa, allergiyasi bo'lgan odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ko'p hollarda qichishish va burun bitishi, aksirish, ko'z yoshlanishi, tomoq og'rig'i, yo'tal va xirillash, ko'krak qafasida og'irlik, toshmalar toshishi va astma xurujlari kuzatiladi.

Havoning ifloslanish darajasi yuqori bo'lganda imkon qadar niqob taqish, ko'chaga kamroq chiqish, ko'proq suyuqlik ichish, bino va xonalar ichida havoni tozalash uchun filtrlı havo tozalagich yoki namlan-

tiruvchi moslamalardan foydalanish, changlarni tez-tez artib turish, xona o'simliklarini ko'paytirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, to'g'ri ovqatlanish, vitaminlarga boy mahsulotlar iste'mol qilish, kundalik jismoniy faollik, yurak va o'pka salomatligini mustahkamlash ham muhim ahamiyatga ega.

Limon va asal solingan iliq suv havo ifloslanganda tavsiya etiladi-



gan tabiiy va foydali ichimliklardan biridir. C vitaminiga boy limon sharbati immunitet tizimini mustahkamlaydi. Asal antibakterial va anti-

oksidant xususiyatlarga ega bo'lib, organizmni zaharlardan tozalashga yordam beradi.

Havoning musaffo bo'lishini ta'minlash uchun atrof-muhitni asrash va toza saqlash, ekologiyaga oid qonunlarga amal qilish, yashil hududlarni ko'paytirish, avtomobil harakatini qisqartirish, toza energiya manbalaridan foydalanish, qisqa masofalarda piyoda yurish yoki velosipedda harakatlanish, chiqindilarni yoqmaslik, ularni to'g'ri yig'ish va qayta ishlash, tashlanmalarni kamaytirish kabi choralar muhim ahamiyatga ega. Zero, tabiatni asrash – inson salomatligini asrash demakdir.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI		TELEFONLAR:	Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi. Shaxsiy h/v 460010860262877031101179003 STIR 200637499.	Buyurtma № 3322. Bosilish – ofset usulida. Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 45038 nusxada chop etildi.
Bosh muharrir polkovnik Bernora SADIKOVA	Mas'ul muharrir Erkin SATTOROV	71-231-33-88; Obuna masalalari bo'yicha: 71-231-38-74; 97-420-89-24		
Bosh muharrir o'rinbosarlari podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV mayor Aziza BOHODIROVA	Veb-dizaynerlar Zokir BOLTAYEV Ilhom JUMANOV Akbar BOLTAYEV Navbatchilar Adolat FAYZIYEVA Yuliya KIM	Web-site: www.postda.uz E-mail: info@postda.uz	Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.	Obuna raqamlari: Yakka tartibda – 180. Tashkilotlar uchun – 366. Bosishga topshirish vaqti – 22.00. Bosishga topshirildi – 21.00. Sotuvda kelishilgan narxda. «Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 1 ^A -uy.
Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.		ISSN 2010-5355 		